

74,37
A.93



LOGOPEDIYA


TO'G'RI TALAFFUZ
QILAMIZ VA
YOZAMIZ



M.Y. Ayupova,
Sh.D. Aripova

LOGOPEDIYA: TO'G'RI TALAFFUZ QILAMIZ VA YOZAMIZ

To'ldirib, qayta ishlangan nashr



Y- 9142/2

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI
Toshkent – 2020

UO'K: 376.37-053.2

KBK: 74.3

A 95

Ayupova M.Y; Aripova Sh.D.

A 95 Logopediya: to'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz: o'quv qo'llanma / M.Y.Ayupova, Sh.D.Aripova, – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.

UO'K: 376.37-053.2

KBK: 74.3

Taqrizchilar:

D.A. Nurkeldiyeva — Oligofrenopedagogika kafedrasи dotsenti,

Z. Jo'rayerva — Respublika ta'lif markazi Maxsus ta'lif bo'limi boshlig'i v.b.

Ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha va kichik muktab yoshidagi bolalarни o'qish (savod)ga o'rgatish bo'yicha ish tizimi keltirilgan. Bu ish tizimining asosida psixik jarayonlar va nutq orasidagi uzuksiz bog'liqlik yotadi. Mualliflar tovush va harflar bilan tanishish jarayonida murakkablashib boruvchi bir guruh mashqlarni tavsiya qilishgan. Ular fonematik idrok, fonematik analiz va sintez, atrof-muhitni ko'rish gnozisi, praksis (harakat)ni rivojlantirish, nutqning grammatik tomonini shakllantirish, lug'at boyligini oshirish hamda mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgandir. Mazkur kitobda harflarni tanish, eslab qolish va qurib-yasashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib o'qish va yozishdagi nuqsonlarning oldini olish masalasini yechishga yordam beradi. O'quv-uslubiy qo'llanma umumta'lim yo'naliشiga ega bo'lib nutqida nuqsoni bor bolalar bilan bir qatorda nutqi normal rivojlangan bolalarga ham o'qishni o'rgatishda foydalanish imkonini beradi. Muqaddimada keltirilgan tavsiyalarda qo'llanma bilan ishslash usullari oson yoritib berilgan.

Bu o'quv qo'llanma logopedlar, pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalarga maktabgacha va kichik muktab yoshidagi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tishga mo'ljalangan.

Respublika ta'lif markazi qoshidagi Maxsus ta'lif yo'naliшi ilmiy-metodik kengashida tasdiqlangan (12.08.2015-yildagi 5-sonli yig'ilish bayonnomasi).

ISBN 978-9943-391-94-9

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2015.

KIRISH SO'ZI

Nutq — insonning eng katta yutug'i bo'lib, u insonga turli tovushlar, so'zlar va boshqa til elementlari yordamida muloqot qilish imkonini beradi. Nutq madaniyati esa, bu vaziyatga mos ravishda fikrni aniq, ravshan, to'g'ri va ta'sirchan qilib yetkazishdir. Nutq insonda ilk yoshlardanoq shakllanib, umri davomida boyib boradi. Nutq rivojlanishining eng faol davri mакtabgacha va maktab yoshida kechadi. Chunonchi, bolalar tomonidan mакtabgacha yoshda nutqning asosiy poydevori shakllanar ekan, demak bevosita bolalar nutqini rivojlantirish metodikasida mazkur holatni inobatga olgan holda asosiy diqqat-e'tibor aynan shu yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va korreksiya qilishga qaratilishi lozim.

Mакtabgacha ta'lif muassasalari ta'lif va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va bolalarni maktab ta'lifiga tayyorlaydi.

Mакtabgacha tarbiya muassasasi xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan ta'lif-tarbiya talablarini yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lif olishga tayyorlashlari lozim.

Mакtabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ta'lif olishga tayyorlash jarayoni ularning lug'at boyligini oshirish, nutqning grammatik tuzilishini korreksiyalash, tovushlarni tahlil qilish,

nutq apparati motorikasini rivojlantirish, psixik jarayonlarni faollashtirishni ham nazarda tutadi.

O'yin va mashqlar sekin-asta murakkablasha borib, fone-matik idrokni, talaffuz malakasini, eshituv diqqatini, verbal xotirani, artikulyatsion motorikani rivojlantirishga yo'naltiriladi. Psixik jarayonni kompensatsiya qilishni nazarda tutuvchi mashqlar, topshiriqlar iloji boricha verballashtirilgan bo'lib, logopedlarga taklif etilayotgan mavzularni o'yin texnologiyalari yordamida, ijodiy yondoshib olib borish tavsiya qilinadi.

Bola xarakteridagi taqlidchanlik, qiziquvchanlikni to'g'ri yo'naltirish, uning dunyoqarashini shakllantirish ota-onalar va pedagogdan qunt bilan ishlashni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi kunda bolani mакtabga tayyorlash masalasi hammani – ota-onalar, pedagoglar va jamoatchilikni qiziqtirmoqda.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida ta'limni amalga oshirish va yangi ta'lim sistemasida o'qitish ishlarini yana-da yaxshilashda yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bu o'z navbatida bolalarni mакtabga alohida tayyorlashni talab etadi. Bolalarning birinchi sinfda o'qish, topshiriqlarni bajarish qobiliyatları, ixtiyoriy diqqati avvalo oilada tarkib topadi. Shuning uchun oilada bola bilan muttasil shug'ullanib turish lozim. Uning ruhiy holatiga qarab ish yuritish, jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom o'sishiga yordam beruvchi o'yin va mashg'ulotlar o'tkazish, turli topshiriqlar berib borish lozim.

Bolalarni maktabga tayyorlash, ularning nutqi, tafakkuri va tasavvurini o'stirish maqsadida mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ko'rgazmalilik yordamida bolalarning kuzatuvchanligi, tafakkuri va tasavvurini o'stirish.

2. Bolalarda kitobga havas uyg'otish, narsa va voqealarga qiziquvchanlik faoliyatini tarbiyalash.

3. Bolalar nutqining grammatik tomonini, lug'at boyligi, fonematik idrokini hamda aqliy faoliyatini rivojlantirish.

Qo'llanma asosan bolalarning og'zaki nutqi hamda shunga asoslangan holda o'quv malakalarini shakllantirishga qaratilgandir.

Og'zaki nutqning shakllanganligi ya'ni tovushlar talaffuzi, fonematik analiz va sintez, nutqning leksik-grammatik tomoni, shuningdek, ko'ruv fazoviy tasavvurlar, ko'ruv mneziisi, gnozisi, analizi va sintezi, mayda motorikaning rivojlanganligi o'qish va yozish malakalarini egallashda muhim rol o'yndaydi.

Mazkur funksiyalardan biri yoki bir nechtasining shakllanishidagi buzilishlar disgrafiya (yozuv jarayonining o'ziga xos buzilishi) va disleksiya (o'qish jarayonining o'ziga xos buzilishi)ning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Yozma nutq buzilishlarining dastlabki sabablari maktabgacha yoshdayoq aniqlana boshlaydi.

Mazkur qo'llanmada tovush va harf bilan tanishish davomida o'qish va yozish malakalarini egallash uchun lozim bo'lgan

nutqiy va nutqiy bo'limgan ruhiy funksiyalarning rivojlanishi-ga ko'maklashuvchi ish turlari taklif etilgan.

O'qishga o'rgatish ishlari voqeaband rasmlar asosida tuzilgan gaplarni analiz va sintez qilishdan boshlanib, gap va so'zlarning sxemasi bilan tanishish taklif etiladi (so'zdagi bo'g'inlar soni, so'zning tovush tarkibi aniqlanadi. Nutq oqimidan tovushni ajratish ko'nikmasi shakllantiriladi, so'zdagi birinchi tovush aniqlanadi).

Tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va uning eshituv obrazi, turli tovush-bo'g'in tuzilishiga ega so'zlardan mazkur tovushni ajratish, eshitilishiga ko'ra o'xhash tovushlarni bir-biridan ajratish ustida ish olib boriladi, so'zning fonematik analizi funksiyasi shakllanadi. So'ngra tovush ma'lum bir harf bilan taqqoslanadi.

Harf – bu tovushning yozuvdagagi ifodasidir. Alifboda bosma harflarning bir nechta elementlari mavjud, harflarni o'qishni o'rganayotgan bola uchun ularni o'zlashtirish murakkab. Shuning uchun qo'llanmada harfni tashkil etuvchi elementlar analiziga katta e'tibor berilib, bunda ko'ruv idroki, fazoviy tasavvurlar, xotira, konstruktiv praksis faol tarzda ishga tu-shadi.

O'quv-uslubiy qo'llanmada harf bilan tanishish quyidagi ketma-ketlikka asoslanadi:

- harfning ko'ruv obrazi bilan tanishtirish;
- turli usullar yordamida tegishli harfni hosil qilish:
- * bosma harf elementlaridan,

- * qo'l barmoqlari yordamida,
- * turli predmetlardan;
- predmet obrazida harfni topish.

So'zlarni o'qish rebuslarni yechishdan boshlanadi (rebuslarni o'qishda o'r ganilgan harflargina e'tiborga olinadi).

So'ngra bolalarga tegishli harf ishtirokidagi bo'g'in, so'z, gap, matnlarni o'qish taklif etiladi.

Grafik-motor malakalarni rivojlantirishga ham e'tibor qaratiladi.

Mashg'ulotlarning barcha turlari bolada tahlil etish, fikrlash, qurish istagini uyg'otadi, uning aqliy faoliyatini faollash tirishga ko'maklashadi.

Tovush va harfning o'zaro farqini tez va samarali o'zlashtirish quyidagi qoidalarga amal qilishga bog'liq:


1. Kattalarga o'qishga o'rgatish tizimi bilan tanishish taklif etiladi.
2. Bolani o'qish jarayoniga ijobiy sozlash zarur.
3. Taklif etilgan material ketma-ketlikda va tizimli ravishda o'r ganiladi. Harflarni o'rganish ketma-ketligini buzish tavsiya etilmaydi, chunki mazkur buzilish materialni o'zlashtirishda salbiy tarzda aks etishi mumkin.
4. O'qishga o'rgatishda bolaning ruhiy va jismoniy o'ziga xosliklarini e'tiborga olish zarur.
5. Qo'llanma bilan ishslash davomida kattalar bolaga yordam ko'rsatishi tavsiya etiladi.



QO'LLANMA BILAN ISHLASHGA DOIR OTA-ONA VA PEDAGOGLARGA TAVSIYALAR (YOKI USLUBIY MASLAHATLAR)

Tovush va harflarni o'rganishdan avval bolaga rasmni ko'zdan kechirish va sxemalarga doir gaplar tuzish taklif etiladi. So'ngra bolalar tegishli bo'g'inli sxemalarga mos so'zlarni topadilar, so'zning tovush tahlilini amalga oshiradilar.

Kitobda shartli belgilar berilgan:



- gap;
- so'z;
- so'zdagi bo'g'inlar soni;
- so'zdagi tovushlar soni;

● — unli harf;

● — undosh harf.

Tovush va harflarni o'rganishda quyidagilar taklif etiladi:

1. Tovushga bo'lgan taqlidni tinglash, undan tegishli tovushni ajratish.
2. Topishmoqni o'qish. Bolaga topishmoqning javobidagi so'zning birinchi tovushini aniqlashni taklif etish.
3. Tovush artikulyatsiyasining o'ziga xosliklari bilan tanishish, ma'lum bir tovushni talaffuz etishdagi lab, tishlar, tiling holatini ketma-ketlikda ko'rsatish.

Unli va undosh harflarning farqiga e'tiborni qaratish lozim:

- unli harf talaffuz davomida to’siqqa uchramaydi va faqat ovoz yordamida talaffuz etiladi;
- undosh harf talaffuz davomida to’siqqa uchraydi va ovoz hamda shovqin (jarangli tovush) yoki faqatgina shovqin (jarangsiz tovush) yordamida talaffuz etiladi.

4. Predmetlarni nomlagan holda unli yoki undosh harfnинг so’zdagi оrnini aniqlash.

Mazkur topshiriqlar fonematik idrok va fonematik tahlilning rivojlanishiga ko’maklashadi.

Tovushlarni оrganishda bolaga mazkur tovushlar qanday holatlarda ifodalashini tushuntirish lozim: со’зning boshida, оrtasi va oxirida.

5. Tegishli tovush ishtirokidagi со’zlarni yodga tushirish.

6. Tovushlarni ketma-ketlikda birlashtirgan holda со’zni nomlash.

7. Со’зning tovush tahlilini amalga oshirish.

8. Tovush artikulyatsiyasining о’ziga xosliklari bilan tanishish, ma’lum bir tovushni talaffuz etishdagi lab, tishlar, tilning holatini ketma-ketlikda ko’rsatish. Tovushlarning jarangli yoki jarangsizligiga ko’ra tovushlar differensiatsiyasini amalga oshirish: bola со’zdagi tovushlarni farqlaydi va ularga tavsif beradi.

9. Harfni, uning grafik tasvirini ko’zdan kechirish. Bolaga harf haqidagi she’rni o’qib berish. Harfni tashkil etuvchi elementlarni topish.

Bosma harf bilan tanishtirish davomida uni qo’l barmoqlari yordamida qurish. Dastlab kattalar she’rni o’qiydi va bir vaqt-

ning o'zida harf qanday qurilishini ko'rsatadi. So'ngra bola harfni kattalar yordamida quradi.

10. So'zni qo'l barmoqlari yordamida qurish. Topshiriq ota-onalar yoki pedagog bilan birgalikda amalga oshiriladi.

11. Harf qanday predmetlardan qurilganini, mazkur predmetlar nomi qanday tovushdan boshlanishini aniqlash. Mazkur topshiriqda fonematik tahlil va konstruktiv praksis ko'ruv idrokining rivojlanishi amalga oshadi.

12. Predmet obrazida mazkur harfni topish.

13. Rebusni mustaqil yechish va so'zni o'qish.

14. Bola bo'g'in, so'z, gaplarni o'qishga o'tadi. Bo'g'inlarni o'qishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bo'g'inlar talaffuzi ravon va qo'shilgan bo'lishi kerak. So'z ma'nosini so'z talaffuz etilgandan so'ng aniqlashtiriladi. Gapda so'zlarning birlashtirilishi bola tomonidan asta-sekin amalga oshiriladi.

15. Harfni yozuvda mustahkamlash:

- * nuqtalarni birlashtirish;
- * harf elementlarini yozib tamomlash;
- * yaxlit qatorni yozib chiqish.

Bola yoza boshlaydi, uning muvaffaqiyatlari esa ijobjiy kayfiyat, kattalarning qo'llab-quvvatlashi, bola faoliyatini doimiy ravishda ijobjiy baholanishiga bog'liq.

Sabrli bo'ling va siz yaxshi natijalarga erishasiz.

Bola yoza boshlaydi, bu esa sizning birgalikdagi yutug'ingiz hisoblanadi.

Rasmga qara.



Sxemaga mos gap tuz.



Sxemaga mos so'z top.



So'zlarni bo'g'inlarga ajrat.



Sxemaga mos gap tuz.




Sxemaga mos so'z top.


So'zlarni bo'g'inqlarga ajrat.




Sxemaga mos gap tuz.



Sxemaga mos so'z top.



So'zlarni bo'g'inlarga ajrat.



Sxemaga mos gap tuz.



Sxemaga mos so'z top.

So'zlarni bo'g'inlarga ajrat.




Sxemaga mos gap tuz.



Sxemaga mos so'z top.

--	--	--

So'zlarni bo'g'lnlarga ajrat.



1. Aziza qo'g'irchog'ini allalardi: «Alla-yo-all, alla-yo-all».
Aziza nima deb kuylar edi?

- «Alla-yo-all...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([A]).



2. «A» nima deydi?

*Ajdod, avlodlar armoni,
Amir, amaldor arkoni,
Anjir, anorning arzoni,
Aql-u adolat arqoni,
Ali, Anvar, Akmal, Abror,
Men bilandir, ham men poydor.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Zuv-zuv borar,
Zuv-zuv kelar.
Doston o'qir,
G'alvir to'qir.

(Asalari)

Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

(Anor)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([A]).

4. Ko'zguga qara va [A] tovushining hosil bo'lislarni kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Og'iz keng ochilgan. Lablar erkin holatda.
Tilning uchi pastki tishlarning oldida, te-kis va erkin holatda bo'ladi.
O'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi.
Un paychalari titraydi, talaffuzda ovoz qatnashadi.



[A] tovushini talaffuz qil

- [A] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Demak, «A» – unlimi, undoshmi?
- [A] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[A] tovushi – unli.

Y-9142/2

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [A] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Ayiq



Tarvuz



Olma

6. [A] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

- [A] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.


A

Bu harf tanish barchaga,
Tayoqchalarning uchi bir.
Belbog'i bor belida
Bu unli «A» harfidir.




Kesa qo'yilgan ikki tayoq,
Belida belbog'i bor biroq.

7. «A» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.





8. Barmoqlaring bilan «A» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqlarni
Burchak qilib qo'yamiz,
O'rta barmoqlarni-chi
Yonma-yon yotqizamiz.
Nomsiz va jimjiloqni
Kaftimizga yashirib,
«A» harfini yasaymiz.

9. «A» harfi nimalardan hosil qilingan?



10. Rasmdan «A» harfiga o'xshash shaklni top.



11. «A» harfini o'qi.

«Tebranish» mashqi: [A] tovushini ovozni ko'tarib, pasaytirib kuyla.




12. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




13. «A» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




14. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



15. «A» harfini to'ldirib yoz:




16. Daftар kataklariga bir qator «A» harfini yoz:



17. Hosil bo'lgan «A» harfini bo'ya.





1. Olim baralla kuylardi: «O-o-o-oná, o-o-o-oná». Olim nima deb kuylar edi?

- «O-o-o-oná...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([O]).



2. «O» nima deydi?

*Ot kasbi – ishchi,
Omborchi, yukchi,
Ortib don-dunni,
Oppoq tuz – unni,
Olib yeladi,
Olib keladi.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Rangi uning qip-qizil,
Bahor u pishar fasl.
Mazasichi xo'p nordon,
Tanlargadir u darmon.

(Oicha)

Bir parcha patir,
Olamga tatir.

(Oy)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([O]).

4. Ko'zguga qara va [O] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar oldinga dumaloq shaklda cho'ch-chaytiriladi. Tilning uchi pastki tishlardan biroz uzoqlashadi, tilning orqa qismi biroz ko'tariladi.

Og'iz bo'shlig'idan chiqayotgan havo to'siqqa uchramaydi.

Un paychalari titraydi, ovoz qatnashadi.



[O] tovushini talaffuz qil

- [O] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Demak, [O] – unlimi, undoshmi?
- [O] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[O] tovushi – unli.

4. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [O] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Oyna



Koptok



Xurmo

5. [O] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

6. [O] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.

O

«O» harfini yasash oson,
Dalil chizsak dumaloq
Hosil bo'lar «O» – o'rtoq.

7. «O» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.




8. Barmoqlaring bilan «O» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni
Birlashtirib bosh barmoqqa,
Hosil qildik «O»ni biz
Bir qarangchi bu yoqqa.

9. «O» harfi nimalardan hosil qilingan?



10. Rasmdan «O» harfiga o'xshash shaklni top.




11. «O» harfini o'qi.

AO

OA

Unlilarni yo'naliш bo'yicha kuyla:




12. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




13. «O» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.



14. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




15. «O» harfini to'ldirib yoz:




16. Daftар kataklariga bir qator «O» harfini yoz:



17. Hosil bo'lgan «O» harfini bo'ya.





1. O'rmonda bo'ri uvillar edi: «U-u-u-u-uuuu...». Bo'ri qanday uvillaryapti?

- «U-u-u-u-uuuu...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([U]).



2. «U» nima deydi?

*Uchqur uchuvchi Ukki,
Uzoq-uzoqqa uchdi.
Uloqcha uchaman deb,
Uzala yerga tushdi.*

*U yon bu yon boqib so'ng,
Uf tortdi tushib cho'kka:
«Uchqur qanotim bo'lsa
Uchardim men ham ko'kka».*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Bir onadan yuz bola,

Bir uyda ikki o'rtoq,

Yuzovi ham bo'z bola.

Biri sariq, biri oq.

(унзң)

(унхнұ)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([U])
- Topishmoq javobidagi ikkinchi tovush qaysi? ([U])
- Topishmoq javobidagi uchinchi tovush qaysi? ([U])
- Topishmoq javobidagi to'rtinchi tovush qaysi? ([U])

4. Ko'zguga qara va [U] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar oldinga dumaloq shaklda cho'chchaytiriladi.

Yuqori va pastki tishlarimizning orasi biroz ochiq holatda bo'ladi.

Tilning uchi pastki tishlarning orqasida erkin holatda bo'ladi, til uchi harakatsiz, hech qanday shakl egallamaydi.

Tilning orqa qismi tanglay tomon ko'tariladi.

Og'iz bo'shlig'idan chiqayotgan havo to'siqqa uchramaydi.
Un paychalari titraydi, ovoz qatnashadi.



[U] tovushini talaffuz qil

- [U] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Demak, [U] – unlimi, undoshmi?
- [U] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[U] tovushi – unli.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [U] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqia.



Uzum



Ruchka



Kakku

6. [U] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. [U] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.

U

Ukki, Ummon va Uloq,
Uzumda u qo'shaloq,
Ikki tayoq birlashsa,
Hosil bo'lar «U» quvnoq.

8. «U» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «U» harfini hosil qil.



Bosh va ko'rsatkich barmoqni yuqoriga qaratamiz, ammo ko'rsatkich barmoqni biroz egiltiramiz. So'ng qolganlarini birlashtirib ko'rsatkich barmoqda «U» harfini hosil qildik.

10. «U» harfi nimalardan hosil qilingan?



11. Rasmdan «U» harfiga o'xshash shaklni top.



12. «U» harfini o'qi.

UO


Unlilarni yo'naliш bo'yicha kuylа:




13. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




13. «U» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




14. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




15. «U» harfini to'ldirib yoz:




16. Daftар kataklariga bir qator «U» harfini yoz:



17. Hosil bo'lgan «U» harfini bo'ya.





1. Sigir va buzoqcha yaylovda o'tlashardi. Buzoqcha onasini: «Mu-u-u...», – deb chaqirdi. Qani aytingchi buzoqcha onasini nima deb chaqirdi?

- «Mu-u-u...» – qanday tovushni eshitib, talaffuz qilding? ([M]).



2. Topishmoqlarning javobini top.

O'zi momiq yoqimtoy,
Myav-myav deydi hoynahoy.
Sichqonlarni ovlaydi
Dilimizni chog'laydi.

(**Mu'shuk**)

Yozda dilning rohati,
Muzmi u yoki qaymoq?
Tez yegin erib ketar,
Nomi uning

(**Muzdaymob**)

- Topishmoqlar javobidagi birinchi tovush qaysi? ([M])

3. Ko'zguga qara va [M] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi

Lablar jipslashadi. O'pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi burundan chiqadi, qolgan qismi katta kuch bilan jipslashgan lablarni yorib chiqadi. Tilning uchi pastki tishlardan biroz uzoqlashadi, tilning o'zi to'g'ri va tinch turadi. Un paychalari titraydi, ovoz qatnashadi.



[M] tovushini talaffuz qil

- [M] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi.
- Demak, [M] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- Tovushni talaffuz qilganimizda tomoq un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[M] tovushi – jarangli, undosh tovush.

4. Predmetlarning nomini ayt.

[M] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Mushuk



Limon



Qalam

5. Tarkibida [M] tovushi qatnashgan so'zlarni yodga ol va ayt.

6. «MOSH» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Mosh so'zida nechta bo'g'in bor?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?


7. [M] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.

Tikka ikkita tayoqqa


Ikkitasi yonboshlab olgan.



8. «M» harfini yozish uchun kerakli bo'lgan elementlarni (shakllarni) tanla.



9. Qo'l barmoqlari yordamida «M» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqlarni pastga osiltirramiz, bosh barmoqlarni esa burchak ostida birlashtirramiz. Qolganini mushq qilib «M» harfini hosil qilamiz.

10. «M» harfi nimalardan hosil qilingan?



11. Rasmdan «M» harfini top.




12. Rebusni yech va so'zlarni o'qi. Hosil bo'lgan so'zlardan gaplar tuz.

M




13. O'qi.

➤ Unlini chiziq bo'ylab undosh bilan qo'shib, bo'g'in hosil qil:



➤ Undoshni chiziq bo'ylab unli bilan qo'shib, bo'g'in hosil qil:



Bo'g'lnarni o'qi.

AMA

OMO

UMU


IMO

Tovushli chizmaga mos keluvchi so'zni o'qi.




mo - mo

14. «M» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




15. Nuqtalarni birlashtir, harfni o'qi:




15. Nuqtalarni birlashtir va bo'ya:



16. «M» harfini hosil qil:



17. Daftarga bir qator «M» harfini yoz:





1. Nargizaning buvisi juda shirin non yopadi. Nargiza buvisi yopgan nonlarni juda yaxshi ko'radi «Noooon».

- «Noooon» – so'z boshida va oxirida qanday tovushni eshitib, talaffuz qilding? ([N])



2. «N» nima deydi?

Ninachixon raqqosa

Nozik, navnihol rosa.

Nazar soling, naqadar,

Nafis raqsga u tushar.

3. Topishmoqlarning javobini top.

Bersa yoqimli sado, Lalmi ekin turidir,
Bulbul ham mastdir hatto. Don-dunlarning biridir.
Xizmatda lab, qo'l, til, Loviya, moshdan emas kam,
Qani bilsang top, Qobil. Ovqatlarga berar ta'm.
(Nay) **(Noxat)**

- Topishmoqlar javobidagi birinchi tovush qaysi? ([N])

4. Ko'zguga qara va [N] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

[N] tovushining talaffuzida til birmuncha faolroqdir, til uchi yuqori tish qatori tagiga tegib turadi. Yumshoq tanglay pastga tushiriladi. Havo oqimi burun bo'shilig'i orqali o'tadi. Tomoq titraydi, ovoz mavjud.



ESLAB QOL!

[N] – jarangli, undosh tovush.

5. Predmetlarning nomini ayt. [N] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Non



Banan



Quyon


6. Tarkibida [N] tovushi qatnashgan so'zlarni yodga ol va ayt.

7. «UN» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Un so'zida nechta bo'g'in bor?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. «N» harfini yozish uchun kerakli bo'lgan elementlarni (shakllarni) tanla.



9. Qo'l barmoqlari yordamida «N» harfini hosil qil.




Orasida belbog' bor
Ikki to'g'ri tayoqcha.
O'ngdan o'rta barmoqni,
Suyang-chi chap tayoqqa.
Harf hosil bo'ldi qarang,
«M»ga yondosh «N» undosh.

10. «N» harfi nimalardan hosil qilingan?



11. Rasmdan «N» harfini top.



12. O'qi.

NA
AN

NU
UN

NO
ON

So'zlarni o'qi:



IN




ONA




ANA


13. «N» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




14. Nuqtalarni birlashtir, harfni o'qi:



15. «N» harfini hosil qil:



16. Daftarga bir qator «N» harfini yoz:



17. Hosil bo'lgan «N» harfini bo'ya.





1. O'rmonda kakku qushi sayrar edi: «Ku-ku...ku-ku...ku-ku...». Kakku qushi qanday sayrayapti?

- «Ku-ku...ku-ku...ku-ku...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([K]).



2. «K» nima deydi?

*Kamtar kamol kasb etar,
Kibor kamol ko'rmay ketar.
Ko'p o'qisang koni foyda,
Kam o'qisang foyda qayda.
Bilimdonlik kishi ko'rki,
Ilm bois ellar erki.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Yolg'iz qolsam yo'ldoshdir,
O'qib mazza qilaman.
Hayotimda ko'z-qoshdir,
Endi ko'p ish bilaman.
Bobom deydi nur-oftob,
Uyga kirgan har...

(Kitob)

Daraxtlarning barglari,
Sarg'ayar oltin misol.
Qay faslda, ayt, do'stim,
Yuz beradi shunday hol.

(Kuz)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([K]).

4. Ko'zguga qara va [K] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



[K] tovushi talaffuz qilinganda tilning orqa qismi yumshoq tanglay tomon yoysimon shaklda ko'tarilib, pastki tishlarga tegib turadi. Qattiq tanglay bilan tilning o'rta qismi orasidagi masofa torayadi. Shu masofadan siqilib, kuch bilan yorib chiqqan havo jarangsiz va portlovchi «K» undosh harfini hosil qiladi.



[K] tovushini talaffuz qil

- [K] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [K] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [K] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[K] – undosh, jarangsiz va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [K] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Kitob



Ruchka



Mushuk

6. [K] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «UKA» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Uka so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. «K» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «K» harfini hosil qil.



To'g'ri tayoqqa bir kun (*o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i yuqoriga yo'naltirilgan*),

Keldi belgicha butun (*chap qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlarining orasi ochiladi*).

O'ng tomondan yondoshdi,



O'rtasiga birlashdi (*o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ining tagiga, chap qo'l ko'rsatkich va o'rta barmoqlarining orasi ochiq holda qo'yiladi*).

«K» harfi bo'ldi paydo,

Eslab qoling doimo.

10. «UKA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. [K] tovushi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «K» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

KA

AK

KU

UK

KO

OK

So'zlarni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, tovushning o'rnini aniqla.



UN



U-KA



A-KA


11. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




14. «K» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




15. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




16. «K» harfini to'ldirib yoz:



17. Daftara kataklariga bir qator «K» harfini yoz:



18. Hosil bo'lgan «K» harfini bo'ya.





1. Eshak og'ilxonada hangradi: «la...ia...ia...!».

- Qani aytingchi eshak nima deb hangradi?
- «la...ia...ia...!». So'z boshida qanday tovushni eshitib, ta-laffuz qilding? ([i])

la-ia-ia...



2. «I» nima deydi?

*It ishonchli izquvar,
Ishini yaxshi bilar.
Ishkal qilsa kim-birov,
Izini olib darrov,
Izlab-izlab topadi,
Irillaydi, qopadi.*

3. Topishmoqlarning javobini top!

Insonning yaqin do'sti, Og'zin ochar,
Uyingda zo'r qo'riqchi. Zahar sochar,
Vov-vov deydi, huradi, Ko'rgan qochar.
Seni ogoh etadi.

(t)

(uo||)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([I]).

4. Ko'zguga qara va [I] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar jilmaygan holatda, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar orasi ochiq, tilning keng uchi pastki tish qirralariga, tilning yon qirralari esa yuqorigi katta tishlarga tegib turadi. Til kuragi qattiq tanglayga ko'tarilgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan burun yo'llarini yopib turadi, og'iz bo'shlig'idan chiqayotgan havo to'siqqa uchramaydi. Un paychalari titraydi, ovoz qatnashadi.



[I] tovushini talaffuz qil

- [I] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Demak, [I] – unlimi, undoshmi?
- [I] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titravdimi?

ESLAB QOL!

[I] tovushi – unli.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [I] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



It



Pichoq



Chumoli

6. [I] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «IKKI» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.


- Ikki so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- Birinchi bo'g'inni ayt.
- Ikkinchchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi birinchi harfni ayt. U unli yoki undoshmi?
- So'zdagi ikkinchi harfni ayt. U unli yoki undoshmi?
- So'zdagi uchinchi harfni ayt. U unli yoki undoshmi?
- So'zdagi to'rtinchi harfni ayt. U unli yoki undoshmi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. [I] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.



Ko'chadagi ustuncha
Tikka bo'lib turarkan,
Yerga yotqizib qo'ysa
Yotmayman, deb aytarkan.

9. «I» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



10. Barmoqlaring bilan «I» harfini hosil qil.




Ko'rsatkich barmoqni biz
Yo'naltirdik tepaga,
Qolgan barmoqlarni-ci
Yashirdik kaft tomonga.
Hosil bo'lar «I» shu chog',
Unlidir bilgin o'rtoq.

11. «IKKI» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

12. [I] tovushi nimalardan hosil qilingan?



13. Rasmdan «I» harfiga o'xshash shaklni top.



14. O'qi.

KI

IK

MI

IM

NI

IN

So'zlarni o'qi, bo'g'irlarga ajrat, tovushning o'rnini aniqla:



IN




IK – KI



NI – NA

Unlilarni yo'nalish bo'yicha kuyla:



«To'rtinchisi ortiqcha». So'zlarni o'qi va «I» harfi qatnashmagan so'zni top:

IKKI

IN

NON

NINA


15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.



16. «I» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




18. «I» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «I» harfini yoz:




20. Hosil bo'lган «I» harfini bo'ya.





1. Poyezd yo'lidan parovoz ketayapti: «Puup-puup...puup-puuuup...». Parovoz qanday ovoz chiqarayapti?

- «Puup-puup...puup-puuuup...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([P]).



2. «P» nima deydi?

Pingvin xola pazanda,

Piyoz-sabzi qozonda,

Peshin palov pishsin deb,

Ish boshlagan azonda.

3. Topishmoqlarning javobini top.

Katta qozon ichida Aksing ko'rinar boqsang,
Sabzi-piyoz gaplashar. Xonaning ko'rkam fayzi.
Tepaga kim chiqar deb Kuyiga mos shu azal,
Guruch va go'sht talashar. Do, re, mi, fa, sol, lya, si.
Chirsillab qo'yar olov
Tayyor bo'ldi deb.....

(Palov)

(Pianino)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([P]).

4. Ko'zguga qara va [P] tovushining hosil bo'lislarni kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar jipslashgan holda, olingan havo-ni shiddat bilan jipslashgan lablar orasidan chiqaramiz. Til pastki tishlar orqasida, biroz orqaga tortilgan, tinch holda turadi. Tomoq titramaydi, ovoz yo'q.



[P] tovushini talaffuz qil

- [P] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [P] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [P] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[P] – undosh, jarangsiz va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [P] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Pomidor



Oshpaz



Ip

6. [P] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «IPAK» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Ipak so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «P» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «P» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni bosh barmoq bilan birlashtirib, halqa hosil qilamiz. Qolgan barmoqlarimizni ko'rsatkich barmoq orqasiga yashiramiz. O'ng ko'rsatkich barmoqni halqaning chap tarafiga birlashtiramiz va jarangsiz «P» harfini hosil qilamiz.

10. «IPAK» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «P» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «P» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

PA

AP

PU

UP

PO

OP

14. So'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil.

IP

PAP-KA

POK

I-PAK

PA-NA

PA-KA-NA

15. So'zlarni bo'g'inxilarga ajrat, [P] tovushining so'zdagi o'rnnini aniqla.



IP



POK



PA-NA



PAP-KA



I-PAK



PA-KA-NA


16. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




17. «P» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.



18. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



19. «P» harfini to'ldirib yoz:



20. Daftar kataklariga bir qator «P» harfini yoz:



21. Hosil bo'lgan «P» harfini bo'ya.





1. Bolg'acha bilan mix qoqayotganda qanday ovoz chiqadi: «Taq-taq... taq-taq...». Bolg'achadan qanday ovoz chiqayapti?

- «Taq-taq... taq-taq...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([T]).



2. «T» nima deydi?

*Tipratikan tikuvchi,
Tinmay tikar tun-u kun,
Turli-tuman buyurtma,
Taxlangan tugun-tugun.*

*Tanho tannoz Tovusning,
Tayyormas buyurtmasi.
Timsohning terisini,
Tesholmadi ignasi.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Polizda koptok bo'lib,
Dumalab yotar, to'pmas.
Dehqon bobom avaylab
Oziq, suv berar, tepmas.

Erta-kech harakatda,
Dam oladi bekatda.
Na'ra tortib der jiring:
«Ehtiyyot bo'ling, yo'l bering!
Yuraman po'lat izdan,
Qolishmayman poyezddan».

(Tavzu)

(Tramvay)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([T]).

4. Ko'zguga qara va [T] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, ammo birikmaydi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga va alveolaga tiralib turadi, tovush bog'lamlari ochiq bo'lib, tovush jaranglamaydi.



[T] tovushini talaffuz qil

- [T] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqli uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqli uchraydi?
- Demak, [T] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [T] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titravdimi?

ESLAB QOL!

[T] – undosh, jarangsiz va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [T] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Tarvuz



Koptok



Daraxt

6. [T] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «KOPTOK» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Koptok so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zdagi oltinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. [T] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.

T

Qani aytgin, sen qizcha
Bu qandayin bolg'acha?
Bolg'acha «taq-taq» etar:
«T»ga do'stman, – deb aytar.

9. «T» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla
va uni hosil qil.



10. Barmoqlaring bilan «T» harfini hosil qil.



Chap kaftimizni o'ngga yo'naltiramiz.
O'ng kaftimizni esa chap kaftimizning
o'rtasiga qo'yamiz. Chetdan qaragan-
da «T» harfini ko'ramiz va hosil qila-
miz.

11. «KOPTOK» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

12. «T» harfi nimalardan hosil qilingan?



13. Rasmdan «T» harfiga o'xshash shaklni top.



14. O'qi.

TA

AT

TU

UT

TO

OT

TI

IT

➤ So'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil hamda ushbu sxemaga moslashtir: 

OT

IT

➤ So'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil hamda ushbu sxemaga moslashtir:   

KIT | TOP | TUT | KUT | TOM | TOK

➤ So'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil hamda ushbu sxemaga moslashtir:   

ta-na | ta-ka

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [T] tovushining so'zdagi o'rnnini aniqla:

mit-ti | tu-man | ti-kan

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [T] tovushining so'zdagi o'rnnini aniqla:

ko-i-not


15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




K




16. «T» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




18. «T» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftara kataklariga bir qator «T» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «T» harfini bo'ya.





1. Hayvonot bog'ida yo'lbars yashaydi. Yo'lbars ovoz chiqarayapti: «Rrrr.....rrrrr...». Yo'lbars qanday ovoz chiqarayapti?

- «Rrrr...rrrrr...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([R]).



2. «R» nima deydi?

*Rassom buzoq rasm solar,
Quyon qo'rqib razm solar.
Rasmlarning zo'rida u,
Rosa katta bo'rida u.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Tuzilishi ajoyib,
Tori ko'p, uzun dasta.
Aytginchi, o'ylab ko'rib,
Qulog'imga, sen asta,
Der kichik ukam Turob,
Aka bu cholg'u....

Kishi diqqatin tortib
Uy to'rida turadi.
Qulog'ini burasang,
Darrov tilga kiradi.

(Rubaq)

(Radio)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([R]).

4. Ko'zguga qara va [R] tovushining hosil bo'lislini kuzat



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar sal ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, ammo tegmagan, til uchi alveolalarga ko'tariladi va titraydi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi, havo oqimi esa og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan, tebranib tovush hosil bo'ladi.



[R] tovushini talaffuz qil

- [R] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [R] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [R] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[R] – undosh, jarangli va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. «R» harfining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Raketa



Arra



Anor

6. [R] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «ANOR» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Anor so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «R» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «R» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni bosh barmoq bilan birlashtirib, halqa hosil qilamiz. Qolgan barmoqlarimizni ko'rsatkich barmoq orqasiga yashiramiz. O'ng qo'llimizni ustun qilib, burchak ostida halqaga birlashtiramiz.

10. «ANOR» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «R» harifi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «R» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

RA

AR

RU

UR

RO

OR

RI

IR

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

ROM

TOR

NOR

NUR

KAR

PAR

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inpurga ajrat, [R] tovushi-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

a-nor

U-mar

a-tir

a-na

no-rin

mar-ra

ar-ra

ka-ram

trak-tor

ma-tor

pa-tir

kam-pir

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inxalda ajrat, [R] tovushini
ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

mi-no-ra

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan
so'zdan gap tuz.



I




RE




A


16. «R» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



18. «R» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «R» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «R» harfini bo'ya.





1. Lola qo'shiq kuyladi «La-la-la». Lola qanday qo'shiq kuylayapti?

- «La-la-la» – bo'g'inlarida birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([L]).



2. «L» nima deydi?

*Lofchi laylak lof urar,
Laqma, laqqa baqaga.
So'ng cho'qib shartta yutar,
Dars bu bola-chaqaga.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Issiq o'lka vatani,
Suv, quyosh, o'g'it joni.
Sariq tuxum mevasi,
Nordon suvli mazasi.

(Limon)

Teg-teg desam tegmaydi,
Tegma desam tegadi.

(Lab)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([L]).

4. Ko'zguga qara va [L] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar yengil kulgu holatida, tishlar ko'ri-nib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, til uchi alveolalar bilan birikadi, tilning orqa qis-mi biroz ko'tariladi, havo oqimi tilning yon tomonlaridan, til oralig'idan va jag' yonlari-dan o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib burun yo'llarini yopib qo'yadi. Havo esa og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lam-lari bog'langan, tebranib tovush hosil bo'ladi.



[L] tovushini talaffuz qil

- [L] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [L] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [L] tovushini talaffuz qilish paytida un psychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[L] – undosh, jarangli va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [L] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Limon



Tulki



Fil


6. [L] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «LIMON» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Limon so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «L» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tania va uni hosil qil.




9. Barmoqlaring bilan «L» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni yuqoriga yo'naltiramiz, bosh barmoqni esa yon tomonga yoyamiz, qolgan barmoqlarni kaft tomonga yashiramiz hamda «L» harfini hosil qilamiz.

10. «LIMON» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «L» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «L» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

LA

LU

LO

LI

AL

UL

OL

IL

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:



TOL

NOL

TIL

TIK

MOL

PUL

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inpida ajrat, [L] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

pil-la

kal-la

ma-lol

til-la

ti-lak

tul-ki

al-la

ka-lit

la-par

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inpida ajrat, [L] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

a-ku-la

ka-ma-lak

o-la-par

ka-pa-lak

Lola ipni ol. Karim kapalakni tut.

➤ [R] va [L] tovushlarini farqlashga o'rgatish:

RA – LA

AR – AL

al-la – ar-ra

mal-la – mar-ra

RI – LI

IR – IL

a-ri – A-li

RO – LO

OR – OL

tol – tor

rom – lom

RU – LU

UR – UL

tur – tul


15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.

6

N



16. «L» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtır va harfning nomini ayt:

18. «L» harfini to'ldirib yoz:

19. Daftar kataklariga bir qator «L» harfini yoz:

20. Hosil bo'lgan «L» harfini bo'ya.





1. Dilmurod nayni chalayapti: «Du-du-du...».

- «Du-du-du...» – bo'g'inlarida birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([D]).



2. «D» nima deydi?

Delfin mohir dengizchi,

Dono, aqlli biram.

Dengizda cho'ksa birov,

Darrov beradi yordam.

3. Topishmoqlarning javobini top.

U yurganda ko'yak, shim
Bo'lar silliq, bejirim.
Kuydirib qo'yar, agar
Turib qolsa bir on jim.

(Dazmoli)

Yarim dunyo, yarim shar,
Gullab boshimda yashar.

(Dopp'i)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([D]).

4. Ko'zguga qara va [D] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



Lablar biroz ochiq holatda; tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin jipslashmagan; «D» tovushi e, i, o, u unli tovushlari bilan talaffuz qilinganda, tilning oldingi qismi yuqorigi tishlarga tiralib turadi; yumshoq tanglay ko'tarilgan bo'lib, burun yo'llarini yopadi. Buning natijasida havo og'iz bo'shlig'idan o'tadi; tovush paylari bog'langan bo'lib tebranadi, jarangli tovush hosil bo'ladi.



[D] tovushini talaffuz qil

- [D] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [D] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [D] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[D] – undosh, jarangli va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [D] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Do'ppi



Bodring



Velosiped


6. [D] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «DANAK» so'zini talaffuz qil. So'zdagi jarangli va jarangsiz tovushlarni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Danak so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «D» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «D» harfini hosil qil.




Ko'rsatkich barmoqni yuqoriga yo'naltiramiz, bosh barmoqni esa yon tomonga yoyamiz, qolgan barmoqlarni kaft tomonga yashiramiz hamda yoy shakliga keltiramiz va chap qo'lning ko'rsatkich barmog'iiga birlashtiramiz.

10. «DANAK» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «D» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «D» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

DA
AD

DU
UD

DO
OD

DI
ID

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil: ●●●

DUR

DAM

DIL

DON

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [D] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

du-tor
da-nak
ran-da

da-lil
da-la
o-dam

ma-dad
o-mad
dak-ki

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [L] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

Ma-di-na
Dil-do-ra

do-i-ra
Dil-mu-rod

Adiba dutor oldi. Umid romni randaladi.

➤ [D] va [T] tovushlarini farqlashga o'rgatish:

DA – TA

AD – AT

DI – TI

ID – IT

dur – tur

dol – tol

DO – TO

OD – OT

DU – TU

UD – UT

adir – atir

dil – til

15. Ramlar asosida gap tuz.






16. «D» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:

D																				


18. «D» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «D» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «D» harfini bo'ya.





1. Said velosipedda sayrga chiqdi. Birdaniga velosipedning baloni teshilib qoldi. Shunda velosipedning balonidan qanday ovoz chiqdi: «Pissssss...pissss...». Velosiped baloni qanday ovoz chiqarayapti?

- «Pissssss...pissss...» – oxirida qanday tovushni eshitayapsan? ([S]).



2. «S» nima deydi?

*Sa'vaxon – suxandon,
So'zlari biyron-biyron.
Soling quloq, qanday soz,
Sehrli, sohir ovoz.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Qo'li yo'q, oyog'i yo'q,
Qulog'i bor, og'zi bor.
Har uuga bor keragi,
Urib tursa yuragi.

(Sot)

Onam, singlim, opamning,
Qo'llarida o'ynaydi.
Hovli-uyni har kuni,
Tozalaydi, to'ymaydi.

(Suturg'i)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([S]).

4. Ko'zguga qara va [S] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



Talaffuz vaqtida lablar jilmaygansimon ochiq; pastki va ustki tishlar esa bir-biriga tegar-tegmas darajada yaqin holatda bo'ladi; tilning uchi yoyilib, yuqori milkka tegar-tegmas holatda bo'ladi, ya'ni tilning sathi bilan qattiq tanglay orasidagi masofa torayib bora-di, yumshoq tanglay esa biroz ko'tariladi. Havo oqimi til va yuqori milkdan sirg'alib chiqadi.



[S] tovushini talaffuz qil

- [S] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [S] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [S] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[S] – undosh, jarangsiz tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [S] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Stul



Somsa



Gilos

6. [S] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «SALOM» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lса, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Salom so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «S» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tala va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «S» harfini hosil qil.



Ilmoqchaga o'xshatib,
«S» bo'ynini egadi,
Davom ettirsa uni,
Sakkiz bo'lib qoladi.

10. «SALOM» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «S» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «S» harfiga o'xhash shaklni top.



13. O'qi.

SA

AS

SU

US

SO

OS

SI

IS

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil: ●●●

SUT

SUV

SIR

SEP

SEL

TUS

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'indarga ajrat, [S] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

A-sal

ka-sal

so-mon

Sa-lim

Ars-lon

sal-la

kur-si

so-at

tas-ma

os-mon

ol-mos

at-las

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'indarga ajrat, [S] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

su-ma-lak

sa-ra-ton

nas-ta-rin


Salima kosaga sumalak soldi. Osmonda turnalar ko'rindi.

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.


8




16. Mevalarni hisobla.




17. «S» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil:




18. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



19. «S» harfini to'ldirib yoz:



20. Daftар kataklariga bir qator «S» harfini yoz:



21. Hosil bo'lgan «S» harfini bo'ya.





1. Ilon qanday ovoz chiqaradi? «Shshsh...shshsh...».

- «Shshsh...shshsh...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([Sh]).



2. «*Sh*» nima deydi?

Shifokor Sher oldiga,

Shum Tulki shashib keldi.

«Voy boshim», – deb yolg'ondan

Maktabdan qochib keldi.

Sher tekshirdi-yu shartta,

Dedi: «Sog'san, darsga bor!»

Shumshayib qaytdi ortga,

Sharmanda bo'lib ayyor.

3. Topishmoqlarning javobini top.

Ko'zga ko'rinxaydi u,
Ovozi bor, jahli bor.
Yeladi u, tinmaydi,
Har narsaga dahli bor.

(Shamol)

Kattaligi uy kabi,
G'izillatib ketadi.
Minib tushar odamlar,
Joy-joyiga yetadi.

(Maschina)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([Sh]).

4. Ko'zguga qara va [Sh] tovushining hosil bo'lislini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar biroz cho'chchaygan, yuqori va pastki tishlar bir-biriga yaqinlashgan. Til uchi mual-laq holatda bo'lib salgina qisqaradi va yo-zilib tepe tishlar tomon ko'tariladi. Pastki jag' esa jipslashadi, til uchi va tishlar oralig'idan sirg'alib chiqqan iliq havo to'lqini [sh] tovushini vujudga keltiradi.



[Sh] tovushini talaffuz qil

- [Sh] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [Sh] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [Sh] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[Sh] – undosh, shovqinli, til oldi tovushidir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [Sh] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Sher



Qoshiq



Quyosh


6. [Sh] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «SHAMOL» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lса, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Shamol so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

8. «Sh» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.




9. Barmoqlaring bilan «Sh» harfini hosil qil.



«Shamol», «Sholg'om» so'zlari
«Sh» harfidan boshlanar,
Ikki o'rtoq har doim
Ajratmasdan yozilar.

10. «SHAMOL» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «Sh» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «Sh» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

SHA
ASH

SHU
USH

SHO
OSH

SHI
ISH

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

SHIM

SHAM

SHAR

TISH

TOSH

MOSH

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [SH] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

mu-shuk
sha-mol
sha-kar

tash-na
un-dosh
sho-ir

sho-tut
shud-gor
Ku-mush

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [SH] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

sha-lo-la
ma-shi-na
shar-sha-ra

Sho-i-ra
ko-sho-na
sar-ta-rosh

Shirin-shakar shotutlar.

➤ [S] va [Sh] tovushlarini farqlashga o'rgatish:

SA – SHA

SO – SHO

AS – ASH

OS – OSH

sa-har – sha-kar

So-li – sho-li

mal-la – mar-ra

rom – lom

SI – SHI

SU – SHU

IS – ISH

US – USH

sim–shim


tus–tush

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




a


16. «Sh» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



18. «Sh» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «Sh» harfini yoz:




20. Hosil bo'lgan «Sh» harfini bo'ya.





1. Birdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburladi: «Gumbur...gumbur...gumbur...». Momaqaldiroq qanday gumburladi?
- «Gumbur...gumbur...gumbur...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([G]).



2. «G» nima deydi?

*Gunafshaxon gunafsha,
Guli mitti gunafsha.
Ko'rinishi siyohrang,
Olib uni taqmasang,
Sendan hafa bo'ladi,*

*Taqsang yashnab turadi.
Ko'rganmisan bahorda?
Terganmisan nahorda?
Suv boyida ochilar,
Hidi har yon sochilar.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Yonsa tutun chiqarmaydi, Ko'k, qizil, lov-lov
Hech yerga gard yuqmaydi. Og'zingda yonar olov.
Bas gugurt chaqsang faqat,
Qaynar choy, pishar ovqat.

(Gaz)

(Garmdori)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([G]).

4. Ko'zguga qara va [G] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



[G] tovushi talaffuz qilinganda tilning orqa qismi yumshoq tanglay tomon yoysimon shaklida ko'tarilib, pastki tishlarga tegib turadi. Qattiq tanglay bilan tilning o'rta qismi orasidagi masofa torayadi. Shu masofadan si-qilib, kuch bilan yorib chiqqan havo jarangli va portlovchi [g] undosh tovushini hosil qiladi.

[G] tovushini talaffuz qil

- [G] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [G] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [G] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[G] – undosh, shovqinli, til oldi tovushidir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [G] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Gerb



Supurgi



Barg

6. [G] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «GILAM» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Gilam so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi tovush qaysi?
- So'zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So'zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So'zdagi to'rtinchi tovush qaysi?
- So'zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. «G» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.




9. Barmoqlaring bilan «G» harfini hosil qil.



Chap qo'lning barmoqlarini yarim oy shaklga keltiramiz, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini yarim oyga birlashtiramiz, qolgan barmoqlarni ko'rsatkich barmoqning tagiga yashiramiz.

10. «GILAM» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «G» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «G» harfiga o'xhash shaklni top.



13. O'qi.

GA
AG

GU
UG

GO
OG

GI
IG

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

GAL

GUL

GOL

GAP

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'nlarga ajrat, [G] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

la-gan
gi-los
si-gir

ll-gak
dan-gal
tan-ga

gi-lam
gu-mon
gap-don

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'nlarga ajrat, [G] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

a-lan-ga
gul-das-ta
gul-ka-ram

a-tir-gul
su-pur-gi
gul-tu-vak

Gulnora atirgullardan guldasta yasadi.

➤ [K] va [G] tovushlarini farqlashga o'rgatish:

KA – GA

AK – AG

KO – GO

OK – OG

kal – gal

KI – GI

IK – IG

KU – GU

UK – UG


kit – git

kul – gul


15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




16. «G» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



18. «G» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftara kataklariga bir qator «G» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «G» harfini bo'ya.





1. Bog'da asalarilar guldan gulga qo'nib asal yig'ishayapti. Ular uchayotganlarda ovoz chiqarayapti: «Zzz....zzz... zzz...».

- «Zzz....zzz...zzz...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([Z])



2. «Z» nima deydi?

Zargaldoq zargar ekan,
Ziragi gavhar ekan.
Ziyrak turib doimo,
Zarlarin asrar ekan.

3. Topishmoqlarning javobini top.

Otga o'xshaydi tani,
Ola-bula badani.

Yomg'ir asta tomchilar,
Barglar yerga sochilar.
Paxtalar ham ochilar,
Bu qaysi fasl bo'lar.

(Zebra)

(zur)

- Topishmoq javobidagi birinchi va oxirgi tovush qaysi? ([Z]).

4. Ko'zguga qara va [Z] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



[Z] tovushini talaffuz qilinganda lablar jilmaygan holda yuqori va pastki tishlar yaqin joylashgan, bir-biriga tegmaydi, 1 mm atrofida ochiq, til o'rtasida «ariqcha» hosil bo'ladi, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi hosil bo'lgan «ariqcha»dan o'tib tish orasidan siqilib chiqadi va ovoz un paychalari tebranishi natijasida [Z] tovushi hosil bo'ladi.



[Z] tovushini talaffuz qil

- [Z] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [Z] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [Z] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[Z] – undosh, jarangsiz, sirg’aluvchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [Z] tovushining so’zlardagi o’rnini aniqla.



Zebra



Dazmol




Yulduz

6. [Z] tovushi ishtirok etgan so’zlarni esla va ularni ayt.
7. «DAZMOL» so’zini talaffuz qil. So’zdagi unli va undoshni ajrat.

So’zda nechta unli bo’lsa, shuncha bo’g’in bo’ladi.

- Dazmol so’zida nechta bo’g’in bor? Nima uchun?
- So’zdagi birinchi tovush qaysi?
- So’zdagi ikkinchi tovush qaysi?
- So’zdagi uchinchi tovush qaysi?
- So’zdagi to’rtinchi tovush qaysi?
- So’zdagi beshinchi tovush qaysi?
- So’zda nechta tovush qaysi?
- So’zdagi oltinchi tovush qaysi?
- So’zdagi ikkinchi bo’g’inni ayt.

8. «Z» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «Z» harfini hosil qil.



O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini to'g'riga yo'naltiramiz, bosh barmoqni pastga yo'naltiramiz, qolgan barmoqlarning ko'rsatkich barmoqning orqasiga yashiramiz. Chap qo'lning bosh barmog'ini yuqoriga yo'naltiramiz, Ko'rsatkich barmoqni to'g'riga yo'naltiramiz va «Z» harfini hosil qilamiz.

10. «DAZMOL» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «Z» harfi nimalardan hosil qilingan.



12. Rasmdan «Z» harfiga o'xhash shaklni top.



13. O'qi.

ZA
AZ

ZU
UZ

ZO
OZ

ZI
IZ

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil: ●●●

ZAR KUZ GAZ ZOT SOZ TUZ

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Z] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

zar-ba

zar-gar

u-zum

za-rar

laz-zat

za-min

za-mon

tiz-za

za-rur

zar-ra

im-zo

u-zuk

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Z] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

zan-go-ri

pa-zan-da

zum-ra-sha

Polizda tarvuz. Zokir tizzasini zinaga urib oldi. Osmonda yulduzlar.

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.



ZOR

16. Savollarga to'g'ri javobni ko'rsat va yo'nalishni belgila:


1	Qaysi transport nomida [z] tovushi bor?	Sabzi
2	Qaysi sabzavotlar nomida [z] tovushi bor?	Poyezd
3	Qaysi yovvoyi hayvon nomida [z] tovushi bor?	Aziza
4	Qaysi qiz bolalar nomida [z] tovushi bor?	Zebra
5	Qaysi mevalar nomida [z] tovushi bor?	Azamat

6	Qaysi parrandalarning nomida [z] tovushi bor?	Qozon
7	Qaysi oshxona anjomlari nomida [z] tovushi bor?	Uzum
8	Qaysi o'g'il bolalar nomida [z] tovushi bor?	Xo'roz


17. «Z» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




18. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:





19. «Z» harfini to'ldirib yoz:



20. Daftara kataklariga bir qator «Z» harfini yoz:



21. Hosil bo'lgan «Z» harfini bo'ya.





1. Azizaning iti juda vafodor. U begona shaxslarni ko'rsa: «Vov... vov... vov....», – deb vovillarydi. Kuchuk qanday ovoz chiqarayapti?

- «Vov...vov...vov....» – birinchi qanday tovushni eshitaysan? ([R]).



2. «V» nima deydi?

*Va'zxonlik qilar to'ti,
«Vijdonli bo'lish kerak.
Va'da berdingmi, bo'ldi,
Vaqtida qilish kerak!»
To'g'ri-yu aytgan so'zi,
Amal qilarmi o'zi?*

3. Topishmoqning javobini top.

Kelar baland tog'lardan,
Juda ham yiroqlardan.
Giyoh bitmas bepoyon –
Sahrolarga berar jon.

(Ans)

- Topishmoq javobidagi oxirgi tovush qaysi? ([V]).

4. Ko'zguga qara va [V] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

[V] tovushini talaffuz qilinganda pastki lab yuqoridagi tish qirralariga yaqinlashganda orada o'pkadan havo chiqib ketishi uchun tor bo'shliq hosil bo'ladi, yuqori lab yengil ko'tariladi. Yuqoridagi tish qirralari ko'rniib turadi, pastki tish qirralarini pastki lab yopib turadi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga tiralgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi esa og'iz orqali o'tadi, tovush boylamlari birikkan bo'ladi va tebranib tovush hosil qiladi.



[V] tovushini talaffuz qil

- [V] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [V] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [V] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titravdimi?

ESLAB QOL!

[V] – undosh, jarangli va portlovchi tovushdir.


5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [V] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Varrak



Qovoq



Suv

6. [V] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.


7. «VATAN» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Vatan so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi undosh harflarni ayt.
- So'zdagi birinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?

- So'zdagi uchinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi? Jarangli yoki jarangsizmi?
 - So'zdagi to'rtinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi beshinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?
 - So'zda nechta tovush bor?

8. «V» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana-la va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «V» harfini hosil qil.



Rim sonlari ichidan
Beshinchi joyni olar,
«Vaqt», «varrak» so'zlari
«V» harfidan boshlanar.
«V» harfini hosil qilish uchun ikkala kaftni yuqoriga yo'naltiramiz, kaftning pastki qismini bir-biriga birlashtiramiz. Yuqori qismini qiya holatga keltiramiz hamda «V» harfini ko'ramiz.

10. «VATAN» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «V» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «V» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

VA

AV

VU

UV

VO

OV

VI

IV

➤ Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil: ●●●

SUV

DUV

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [V] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

va-tan

nov-vot

var-rak

tar-vuz

tar-vuz

Va-li

nov-da

o-lov

av-val

gav-da

sa-vat

va-gon

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [V] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

Va-zi-ra

vi-ta-min

14. Savollarga javobni to'g'ri ko'rsat:


1. Qaysi parrandalarning nomida [v] tovushi bor?
2. Qaysi transport nomida [v] tovushi bor?
3. Qaysi uy jihozlari nomida [v] tovushi bor?
4. Qaysi hayvonlar nomida [v] tovushi bor?
5. Qaysi sabzavotlar nomida [v] tovushi bor?
6. Qaysi ismlar nomida [v] tovushi bor?
7. Qaysi poliz ekinlar nomida [v] tovushi bor?
8. Qaysi manzarali daraxtlar nomida [v] tovushi bor?
9. Qaysi kasblarning nomida [v] tovushi bor?

Tekshirish uchun so'zlar: avtobus, oshqovoq, lavlagi, novvoy, tovus, ovchi, Shavkat, tovuq, o'qituvchi, velosiped, qovun, Avaz, tramvay, Vasila, vertolyot, Mavlon, divan, Vazira, loviya, Davron.


15. «V» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




16. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




17. «V» harfini to'ldirib yoz:



18. Daftara kataklariga bir qator «V» harfini yoz:



19. Hosil bo'lgan «V» harfini bo'ya.





1. Bola pufakni shishirayapti: «Fffff-fffff...fff-fff...».

- «Fffff-fffff...fff-fff...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([F]).



2. «F» nima deydi?

*Fil xolaga bir qarang,
Tozalabdi har yoqni.
Topmaysiz hech yerda chang,
Artib kiring oyoqni.
Yashnab turar hamma yoq.
Barchaning mehnatini
Qadrlang siz ey o'rtoq.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Rosa katta jonivor,
Favoraday suv sochar.
Faqtat bitta aybi bor,
Mitti sichqondan qochar.

(F11)

Yigirma ikki kishi,
Hammaning bitta ishi.
To'pni ilgari surmoq,
To'r-tuzoqqa tushirmoq.

(Futbol)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([F]).

4. Ko'zguga qara va [F] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Talaffuz vaqtida pastki lab oldingi yuqorigi tishlar tomon ko'tarilib havo oqimi chiqishi uchun tor bo'shliq yaratadi.

Yuqorigi lab yengilgina ko'tariladi va yuqorigi tishlar ko'rinish turadi. Pastki tishlarni pastki lab yopib turadi. Til uchi ko'tarilib o'rta qismida salgina yoy shakli hosil bo'ladi. Yumshoq tanglay bilan til orasida keng masofa hosil bo'ladi. Ovoz paychalari ochiq bo'lib, tovush hosil bo'lishida ishtirok etmaydi. Havo oqimi til va lab orasidan kuch bilan sirg'alib chiqadi va [F] tovushi hosil bo'ladi.



[F] tovushini talaffuz qil

- [F] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?

- ✓ Demak, [F] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- ✓ [F] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titrav-dimi?

ESLAB QOL!

[F] – undosh, jarangsiz va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [F] tovushining so'zdagi o'rnnini aniqla.



Favvora



Shaftoli



Sharf

6. [F] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «FAVVORA» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Favvora so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U unli yoki undoshmi? Ni-ma uchun?

- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf mi?
 - So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf mi?
 - So'zdagi oltinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi yettinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf mi?
 - So'zda nechta tovush bor?
 - So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
 - So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «F» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «F» harfini hosil qil.




Ko'rsatkich barmoqni pastga yo'naltiramiz, bosh barmoqni yonga qaratamiz. Qolgan barmoqlarimizni kaft orqasiga yashiramiz. O'ng ko'rsatkich barmoqni chap ko'rsatkich barmoqning ustiga qo'yamiz va «F» harfini hosil qilamiz.

10. «FAVVORA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «F» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «F» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

FA
AF

FU
UF

FO
OF

FI
IF

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

FIL

FAN

SOF

NAF

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [F] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

Far-mon
fi-zik
fit-na

far-zand
far-mon
fi-do

fur-sat
fut-bol
fa-lak

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [F] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

fab-ri-ka
fav-vo-ra
Fa-zi-lat

fa-zo-gir
fa-lo-kat
fa-ro-sat

Fazilat juda farosatli. Uning otasi fizik. Onasi shifokor.

[V] va [F] tovushlarini farqlashga o'rgatish.

VA – FA
AV – AF

VO – FO
OV – OF

va-za – fa-za

av-val – Af-zal

VI – FI

IV – IF

VU – FU

UV – UF

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




F

16. «F» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




F


17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




18. «F» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftar kataklariga bir qator «F» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «F» harfini bo'ya.





1. Aziz childirma chalayaptı: «Baka-baka-bum.....».

- «Baka-baka-bum.....» – bo'g'inlarida birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([B]).



2. «B» nima deydi?

*Baliq boyvuchcha desam,
Bekor gap dema hecham.
Boq o'zing, ana o'rtoq,
Badani xo'p yaltiroq.
Boshdan-oyoq tanga u,
Bas, boyvuchcha yanga u.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Hilpirab berar darak,
O'zbekiston – mushtarak.
Oy-u, o'n-ikki yulduz,
Kechani aylar kunduz.

(Bayroq)

Suv ostida makoni,
Chuvalchang uning joni.
Qo'lda turmaydi silliq,
Tanga to'nli u (.....)

(Baqid)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([B]).

4. Ko'zguga qara va [B] tovushining hosil bo'lismeni kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



[B] tovushi jarangli lab undosh tovushidir. Artikulyatsion holat xuddi [P] tovushi talaf-fuzidek bo'lib faqat ovoz paychalari jipslashadi va havo oqimi kuchsiz bo'ladi. Lablar tinch holatda birikkan bo'lib, havo chiqishi bilan birdaniga ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati [B] tovushidan keyin keladigan unli tovushga bog'liq bo'ladi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi. Havo oqimi og'izdan o'tadi, tovush boyamlari birikkan bo'ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

[B] tovushini talaffuz qil



- [B] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?

- Demak, [B] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [B] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[B] – undosh, jarangli va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [B] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Baliq



Sabzi



Kitob

6. [B] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «BINAFSHA» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Binafsha so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi? Nima uchun?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- [F] dan oldingi tovushni ayt.
- [B] dan keyingi tovushni ayt.

8. Rasmdagi narsalarning nomini ayt.

Qaysi rasmda [B] tovushi, qaysi rasmda [P] tovushi qatnashganini ayt. [B], [P] tovushlarining so'zdagi o'rnnini aniqla.



9. «B» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.




10. Barmoqlaring bilan «B» harfini hosil qil.



Bosh va ko'rsatkich barmoqni birlashtirib doira hosil qilamiz. Qolgan barmoqlarni ham birlashtirib doira hosil qilamiz va yuqoriga yo'naltiramiz. Shu on «B» harfini ko'ramiz.

11. «BINAFSHA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

12. «B» harfi nimalardan hosil qilingan?



13. Rasmdan «B» harfiga o'xshash shaklni top.



14. O'qi.

BA

AB

BU

UB

BO

OB

BI

IB

15. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

BIR

BIL

LAB

BOR

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, [B] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

bi-lak

ba-land

bal-ki

bo-bo

bi-lim

bol-ta

bo-dom

bal-li

o-dob

ki-tob

mak-tab

of-tob

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [B] tovushining so'zdagi o'rnnini aniqla:

ba-dav-lat

du-shan-ba

bi-naf-sha

av-to-bus

Botir bilimlar koni maktab tomon yo'l oldi. Tolib, ana Bilol. Bilol bilimli bola.

➤ «Tez aytish».

1. Bilol bilimli bolami?

Bilimli bola Bilolmi?

2. Botir bobosinikiga bordimi?

Bobosi Botirnikiga bordimi?

3. Turp tutni turtib turibdimi?

Tut turpni turtib turibdimi?

➤ [B] va [P] tovushlarini farqlashga o'rgatish:

BA – PA

AB – AP

BI – PI

IB – IP

barg – park

BO – PO

OB – OP

BU – PU

UB – UP


bol – pol

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.


TOSH




16. «B» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



18. «B» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «B» harfini yoz:



20. Hosil bo'lган «B» harfini bo'ya.





1. Yo'Idosh barchani bayram dasturiga chorladi: «Eyyy... eyyyy...eyyyy...», deb hayqirdi. Yo'Idosh nima deb hay-qirayapti?

- «Eyyy...eyyyy...eyyyy...» – oxirida qanday tovushni eshitayapsan? ([Y]).

2. «Y» nima deydi?

*Yo'l-yo'l fomali Yo'lbars –
Yo'l nazorat xodimi.
Yurgan yo'lovchilarning
Kuzatar har odimin.*

*Yo'Ichiroqqa qaramay,
Tartib buzsa qay biri,
Yo'lga solib, ayamay,
Berib qo'yar ta'zirin.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Bir tilik qovun shakli,
Ko'k gumbazga yarashar.
Kunlar o'tib to'lishsa,
Hamma unga qarashar.

To'y-bayramda yangrar soz,
Jarangdor baland ovoz.

(Y)

(karnay)

- Topishmoq javobidagi oxirgi tovush qaysi? ([Y]).

4. Ko'zguga qara va [Y] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar tishlarga yaqinlashgan bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, til uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi: tilning yon qirralari kurak tishlariga ichki tomonidan siqilgan bo'ladi, til kuragini o'rta qismi qattiq tanglayga ko'tariladi va ikkalasining orasida tirkish hosil bo'lib, o'pkadan chiqayotgan havo shu tirkishdan o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi. Chiqayotgan havo og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan bo'ladi va tebranib tovush hosil qiladi.



[Y] tovushini talaffuz qil

- [Y] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [Y] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [Y] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[Y] – undosh, jarangli va har doim yumshoq tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. «Y» harfining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Yo'lbars



Maymun



Oy

6. «Y» harfi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «MAYMUN» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Maymun so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi undosh tovushlarni ayt.
- So'zdagi birinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?

Nima uchun?

- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi uchinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?

- So'zdagi to'rtinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi beshinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. «Y» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «Y» harfini hosil qil.



«Y» harfini hosil qilish uchun ko'rsat-kich barmoqni yuqoriga yo'naltiramiz, o'rta barmoqni ozgina bukamiz, bosh barmoqni qiya holatga keltirib egamiz va pastki qismini bir-biriga birlashtiramiz. Shu on «Y» harfini ko'ramiz.

10. «MAYMUN» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «Y» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «Y» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

YA

AY

YU

UY

YO

OY

YI

IY

11. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil: BOY SOY TOY YIL KUY

BOY

SOY

TOY

YIL

KUY

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Y] tovushini
ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

oy-na
may-da
day-di
tar-vuz

yi-rik
Yay-ra
ki-yim
may-na

bay-ram
may-don
ki-yik
yu-rak

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Y] tovushini
ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

tar-bi-ya
Di-yo-ra


Diyora bilan Laylo Yangi yil bayramiga bordilar. Bayram
dasturi ularga juda manzur bo'ldi.

**14. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan
so'zdan gap tuz.**




NA


15. «Y» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




16. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




17. «Y» harfini to'ldirib yoz:



18. Daftар kataklariga bir qator «Y» harfini yoz:



19. Hosil bo'lgan «Y» harfini bo'ya.





1. Qish fasli. Havo juda ham sovuq edi. Halima qorbo-bo yasash uchun ko'chaga chiqdi. Uyga qaytgach qo'lqop-lari qorligi uchun qo'llari muzlab qoldi. Halima qo'lqoplarini yechib, qo'llarini isita boshladи: «H-h-h-hu-hu...!» Halima qo'llarini qanday isitayapti?

- «H-h-h-hu-hu...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([H]).



2. «H» nima deydi?

*Hakka harbiy xizmatda,
Himoyachi, zo'r posbon!
Havodan o'tmas pashsha,
Hatto o'tolmas sichqon.*

3. Topishmoqning javobini top.

Pak-pakana boyi bor,
Olachipor to'ni bor,
O'tkiringina hidi bor.

(Handalak)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([H]).

4. Ko'zguga qara va [H] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng qismi pastki kurak tishning orqasida turadi, havo tomoqdan qirilmay, yumshoq chiqadi.



[H] tovushini talaffuz qil

- [H] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [H] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [H] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[H] – undosh, jarangsiz va sirg'aluvchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. «H» harfining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Handalak



Behi



Timsoh

6. «H» harfi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.


7. «HANDALAK» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.


- Handalak so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi undosh harflarni ayt.
- So'zdagi birinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
Nima uchun?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- [H] tovushidan keyingi harfni nomla. U unli yoki undosh harfmi?

- So'zdagi to'rtinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- [N] tovushidan keyingi harfni nomla. U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harfni ayt. U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi yettinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. «H» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «H» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqlarni yuqoriga ko'taramiz, o'rta barmoqlarni egib, ularni birlashtiramiz. Qolgan barmoqlarni kaft tomonga bukamiz, shu on undosh «H» harfini ko'ramiz.

10. «HANDALAK» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. [H] harfi nimalardan hosil qilingan?



11. Rasmdan «H» harfiga o'xshash shaklni top.



12. O'qi.

HA

AH

HU

UH

HO

OH

HI

IH

13. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil:

HOL

HOY

HID

HAR

HAM

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [H] tovush*hi*-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

ha-vo	hay-kal	mo-hir
ha-vas	hay-ron	hu-nar
hav-za	hu-mo	ha-lol
hov-li	tim-soh	has-sa
sah-ro	lo-has	huj-jat

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [H] tovush*hi*-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

hay-vo-not	mah-su-lot
Hi-lo-la	ma-ho-rat
han-da-lak	ma-hal-la

➤ To'rt bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [H] tovush*hi*-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

ho-sil-dor-lik
mah-ma-do-na

Hi-lo-la ti-kuv-chi-lik-ni o-na-si-dan bi-lib ol-gan. U ju-da chi-roy-li ti-ka-di. Mah-mud ham o-ta-si-dan zar-gar-lik hu-na-ri-ni ol-gan. U a-jo-yib zar-gar-lik bu-yum-la-ri-ni ya-say-di.

➤ Maqollar:


1. Hu-nar, hu-nar-dan u-nar.
2. Ha-ra-kat, ha-ra-kat-da ba-ra-kat.

13. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.


MAKKA




14. «H» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




15. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




16. «H» harfini to'ldirib yoz:



17. Daftар kataklariga bir qator «H» harfini yoz:



18. Hosil bo'lgan «H» harfini bo'ya:





1. Elbek baliq tutayapti. «Eeeeh! Baliq qarmoqqa ilinma-di!» – hayqirdi Elbek.
- «Eeeeh!» – so'z boshida qanday tovushni eshitding? [E].



2. «E» nima deydi?

*Etik sotib olibdi,
Etikdo'zdan echkivoy.
Ehtiyyotlab etigin,
Endi tinmay surtar moy.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Tak-tak tomdan qor yog'ar. Quyon emas, uzun qulqoq
Ot emas, to'rtta tuyoq.
(Elaқ) (Eshak)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([E]).

4. Ko'zguga qara va [E] tovushining hosil bo'lismeni kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar jilmaygan (kulgan), tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar ko'rinish turgan, tilning keng uchi pastki tish qirralariga tegib turgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqligan, burun yo'llarini yopib turgan hamda havo oqimi og'iz orqali o'tib ketadigan, tovush bog'lamlari birikkan, tebranib tovush hosil qiladigan holatda bo'lib turishiga e'tibor berish kerak.



[E] tovushini talaffuz qil

- [E] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [E] – unlimi, undoshmi?
- [E] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[E] tovushi – unli.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [E] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Etik



Behi



Telefon

6. «E» harfi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «BEDANA» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Bedana so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi, jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?

- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf mi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. [E] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.


E

Hovlidagi narvoncha
Birdan sinib qolibdi.
Bitta ustuni tushib,
«E» o'xshab qolibdi.

9. «E» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



10. Barmoqlaring bilan «E» harfini hosil qil.



Jimjiloqni bosh barmoq orasiga yashiramiz. Ko'rsatkich, nomsiz va o'rta barmoqni o'ng tomonga qaratamiz. Ikkinchi qo'lning ko'rsatikich barmog'ini, birinchi qo'lning uchta barmog'i bilan birlashtiramiz. Ular birgalikda «E» harfini hosil qiladi.

11. «BEDANA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

12. «E» harfi nimalardan hosil qilingan?



3. Rasmdan «E» harfiga o'xshash shaklni top.



14. O'qi.

RE
ER

NE
EN

SE
ES

15. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil:

EL

EK

BEL

BET

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, [E] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla.

e-lak
e-tik
e-kin
e-tak
ek-ran

Oy-bek
er-tak
te-rak
te-rim
ek-ran

ket-mon
be-kat
Er-kin
ke-lin
zeb-ra

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, [E] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:


be-da-na
bel-ku-rak

Bek-mu-rod
boy-che-chak

TEMUR BOBOM

Temur bobom – tillo bobom,
Donolardan dono bobom.
Der edilar: Ona elim,
Murodidir erk-u ilm.

➤ Unlilarni yo'nalish bo'yicha kuyla.



➤ «To'rtinchisi ortiqcha». So'zlarni o'qi va «E» harfi qatnashmagan so'zni top:

EGAR

ESHAK


DONO

EKIN


16. Quyida aralashtirib berilgan so'zlar orasidan «E» harfi qatnashgan so'zlarni top.

R	T	Y	U	E	R	K	A	T	O	Y	G	H	J	K	K	E	T	M	O	N	
B	G	F	V	C	D	F	R	E	F	D	E	G	H	Y	E	L	A	K	C	X	
Z	A	D	F	G	E	R	F	E	D	S	X	C	D	E	L	F	I	N	C	X	S
A	D	E	R	A	Z	A	M	B	H	I	O	P	L								


17. «E» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




18. «E» harfini to'ldirib yoz:



19. Daftар kataklariga bir qator «E» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «E» harfini bo'ya.



Ch ch

1. Charos jo'jalariga don berayapti. U jo'jalarini «Chip-chip», deb chaqirayapti. Charos jo'jalarini qanday chaqirayapti? «Chip-chip, chip-chip, chip-chip».

● «Chip-chip, chip-chip, chip-chip» – so'zlarida birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([Ch]).



2. «Ch» nima deydi?

*Chigirtka zo'r cholg'uchi,
Chalar kuy charchamasdan.
Chirildoqlar jo'r bo'lib
Chirillar har tarafdan.*

*Chir aylanib o'ynaydi
Chiroyli kapalaklar,
Chapak chalib quvnaydi
Chamandagi chechaklar.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Qora, qizil, qanotli,
Bitta otim ishlar ko'p.
Tinim bilmas yoz bo'yи,
Qishda mamnun,
xursand xo'b.

(Chumoli)

Ushlash uchun bandi bor
Har uygа juda kerak.
Obihayot sig'imi,
Nima ekan bu (.....)

(Chelek)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([Ch]).

4. Ko'zguga qara va [Ch] tovushining hosil bo'lismeni kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar aylana shaklida va biroz oldinga chiqqan, tishlar bir-biriga jipslashgan, til uchi, til kuragi yuqoridagi tishlar yoki alveolalar bilan birikadi. Bu birikuv sekin-asta ular o'rtaсидаги тирқишга аylanadi, til o'rtaсидан qisqa havo oqimi o'tadi. Buni his etish uchun qo'l kaftini og'iz oldiga olib kelish kerak, yumshоq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga qisilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi, havo esa og'iz orqali o'tadi, tovushning bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.



[Ch] tovushini talaffuz qil

- [Ch] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [Ch] unli tovushmi, undosh tovushmi?

➤ [Ch] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari tit-raydimi?

ESLAB QOL!

[Ch] – undosh, shovqinli, til oldi tovushidir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. «Ch» harfining so'z-lardagi o'rnini aniqla.



Chana



Pichoq



Qaldirg'och

6. [Ch] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «CHILDIRMA» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Childirma so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?

- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi, jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi sakkizinchhi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «Ch» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.




9. Barmoqlaring bilan «Ch» harfini hosil qil.



«Charos», «Choynak» so'zlari
«Ch» harfidan boshlanar,
Ikki o'rtoq doimo
Ajratmasdan yozilar.

10. «CHILDIRMA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «Ch» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «Ch» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

CHA
ACH

CHU
UCH

CHO
OCH

CHI
ICH

CHE
ECH

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil:

CHOY

CHOL

CHOK

CHIT

KUCH

CHAP

- Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inlarga ajrat, [Ch] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

chov-li
chor-va
poch-ta
Cha-ros

no-chor
ku-chuk
gu-ruch
che-var

chi-vin
cha-na
cha-pak
Lo-chin

- Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inlarga ajrat, [Ch] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

cham-ba-rak
be-lan-chak
chil-dir-ma


chi-girt-ka
ti-kuv-chi
bi-rin-chi

Charos juda mehribon. U bu yil birinchi sinfga boradi. Uning mittigina kuchukchasi bor. U kuchukchasiga Olapar deb nom bergen. Kuchukchasi Charosdan bir zum ham ajralmaydi. Charos har kuni kuchukchasing rasmini chizadi. Chizgan rasmlari barchaga manzur.

15. Rebusni yech va hosil bo'lgan so'zni ayt. Hosil bo'lgan so'zdan gap tuz.




16. «Ch» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




17. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



18. «Ch» harfini to'ldirib yoz:




19. Daftara kataklariga bir qator «Ch» harfini yoz:



20. Hosil bo'lgan «Ch» harfini bo'ya.





1. Dalada qo'ng'iz uchayapti. U qanday ovoz chiqarayapti? «J-j-j-j-j...».

- «J-j-j-j-j...» – qanday tovushni eshitayapsan? ([J]).



2. «J» nima deydi?

*«J» harfiman jarangli,
Jozibador va jo'shqin.
Jonimga joylaganman,
Jonajon vatan mehrin.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Yorib oppoq uychasin O'zi ichkarida,
«Chip-chip» deb qoyadi u, Soqoli tashqarida.
Chuvalchangni cho'chimay,
Cho'qib yeb qoyadi u.

(я, ё)

(ю, ою)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([J]).

4. Ko'zguga qara va [J] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar aylana shaklida va biroz oldinga chiqqan, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi alveolaga yoki qattiq tanglayning oldingi qirrasiga ko'tarilgan bo'lib, ular o'rtaida tirqish (bo'shliq) hosil bo'ladi, tilning o'rtaidan iliq havo oqimi o'tadi. Buni his etish uchun qo'l kaftining orqa tomonini og'iz oldiga olib kelish kerak, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga si-qilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi, o'pkadan chiqayotgan havo og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan bo'lib, tebranib tovush hosil qiladi.



[J] tovushini talaffuz qil

- [J] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?

- Demak, [J] unli tovushmi, undosh tovushmi?
- [J] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titrav-dimi?

ESLAB QOL!

[J] – undosh, shovqinli, til oldi tovushidir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [J] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Jo'ja



Anjir



Toj

6. [J] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «JASORAT» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Jasorat so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?

- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?

Nima uchun?

- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi, jarangli yoki jarangsiz tovushmi?

- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zda nechta tovush bor?
 - So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
 - So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
 - So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «J» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «J» harfini hosil qil.



Soyabonning bandini
Kim sindirdi, ayt tezroq?
Yo'q, sira unday emas,
«J» bu eslab qol, o'rtoq.

10. «JASORAT» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «J» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «J» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

JA

AJ

JU

UJ

JO

OJ

JI

IJ

JE

EJ

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil: ●●●

JOY

JAM

TOJ

AVJ

BOJ

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [J] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

ja-la
ja-von
ja-vob
jad-val

jiy-da
aj-dar
an-jir
jaj-ji

Ja-sur
jay-ron
Mar-jon
jan-nat

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [J] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

ja-vob-gar
ja-so-rat
Ja-vo-hir

jay-da-ri
ja-ri-ma
jo-zि-ba

➤ To'rt bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [J] tovushining so'zdagi o'rnini aniqla:

ja-zи-ra-ma

15. Rasm asosida gap tuz.



Jahongir va Marjona daraxt ko'chatini ekishayapti.

16. She'rni o'qing va yod oling.

*Jaloliddin jur'atiga,
Jahongir jasoratiga,
Jamila shijoatiga,
Javobdirman men albatta.*


17. Savollarga javobni to'g'ri ko'rsat.

- | | |
|--|---------------|
| 1. Qaysi mashina nomida «j» harfi bor? | Majnuntol |
| 2. Qaysi uy jihozlari nomida «j» harfi bor? | Gultojixo'roz |
| 3. Qaysi hayvonlar nomida «j» harfi bor? | Anjir |
| 4. Qaysi sabzavotlar nomida «j» harfi bor? | Jo'ja |
| 5. Qaysi mevalar nomida «j» harfi bor? | Jurnalist |
| 6. Qaysi gullar nomida «j» harfi bor? | Jiguli |
| 7. Qaysi oshxonanomida «j» harfi bor? | Tijoratchi |
| 8. Qaysi kasblarning nomida «j» harfi bor? | Jo'mrak |
| 9. Qaysi parrandalarning nomida «j» harfi bor? | Jiyda |
| | Jayron |
| | Jo'va |
| | Baqlajon |


18. «J» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




19. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




20. «J» harfini to'ldirib yoz:



21. Daftар kataklariga bir qator «J» harfini yoz:




22. Hosil bo'lgan «J» harfini bo'yа.





1. G'ozlar «G'oq...g'oq...g'oq...g'oq...», – deb bir-birlarini suv bo'yiga chorlashdi. G'ozlar bir-birlarini qanday chaqiradi?

- «G'oq...g'oq...g'oq...g'oq...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([G']).



2. «G'» nima deydi?

*G'o'ng'illab, der bir ari
G'ashga tegma qoch nari.
G'azabimni qo'zg'atsang
G'arch sanchaman nashtarim.*



3. Topishmoqlarning javobini top.

Yonidan o'tsa birov,
Bo'ynini cho'zib darrov.
Cho'qiy deb qilar hujum,
G'a-g'alaydi betinim.


(zo, ɔ)

Ko'p qirrali to'rtburchak,
Kerak bo'lar uy qursak.

(G, ihs)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([G']).

4. Ko'zguga qara va [G'] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Yuqori va pastki old tishlar o'rtasida muayyan oraliq masofa saqlanadi. Til uchi harakatsiz, hech qanday shakl egallamaydi. Til o'zagi tanglay tomon ko'tariladi va [G'] tovushi bo'g'izda hosil bo'ladi. Til o'zagi hamda un paychalari kuchli tebranadi. Yumshoq tanglay ko'tarilgan, o'pkadan chiqayotgan havo burunga o'tadigan yo'lini to'sgan, ovoz un paychalarining kuchli tebratilishi natijasida [G'] tovushi paydo bo'ladi.



[G'] tovushini talaffuz qil

- [G'] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?
- Demak, [G'] unli tovushmi, undosh tovushmi?

➤ [G'] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titrav-dimi?

ESLAB QOL!

[G'] – til orqa undoshi, jarangli tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [G'] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



G'uncha



Bug'doy



Bo'yinbog'

6. [G'] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

7. «G'ILDIRAK» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- G'ildirak so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?

- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf-mi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf-mi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harf-mi?
- So'zdagi sakkizinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «G» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «G» harfini hosil qil.



Chap qo'lning barmoqlarini yarim oy shaklga keltiramiz, o'ng qo'lning ko'rsat-kich barmog'ini biroz bukib, chap qo'lning yuqori qismiga yo'naltiramiz, qolgan barmoqlarni ko'rsatkich barmoqning tagiga yashiramiz.

10. «G'ILDIRAK» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «G» harfi nimalardan hosil qilingan?



12. Rasmdan «G» harfiga oid narsalarni ko'rsat.



13. O'qi.

G'A

AG'

G'U

UG'

G'O

OG'

G'I

IG'

G'E

EG'

14. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil: ●●●

G'oz

G'ov

G'uj

Jag'

Bo'g'

To'g'

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inxarga ajrat, [G'] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

g'a-zal

g'al-tak

g'un-cha

bug'-doy

shol-g'om

G'o-lib

sog'-lom

g'a-zab

G'ay-rat

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inxarga ajrat, [G'] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:


g'il-di-rak

bo'-yin-bog'


➤ «Tez aytish»ni yod ol.

G'ani g'ildirakni g'ildiratdi.


14. «G» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




15. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



16. «G'» harfini to'ldirib yoz:




17. Daftар kataklariga bir qator «G'» harfini yoz:



18. Hosil bo'lган «G'» harfini bo'ya.





1. O'rdaklar suv bo'yida yashaydilar.



2. «O'» nima deydi?

O'qituvchi O'rdakning,
O'tgan darsini har kun.
O'zlashtirib, o'rganar,
O'quvchi o'rdakchalar.
O'zlari yosh bo'lsa ham,
O'tkir zehnli biram.
O'ylab topishar darhol,
O'nta bo'lsa ham savol.

3. Topishmoqlarning javobini top.

To'r bilan o'rab olgan,

Pashshaga zanjir solgan

(O'rgimchak)



Sariqligi zar dedim,

Totib, asal qand dedim

(O'rik)



- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([O']).

4. Ko'zguga qara va [O'] tovushining hosil bo'lislarni kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi

Lablar oldinga dumaloq shaklda cho'chchaytiriladi. Tilning uchi pastki tishlardan biroz uzoqlashadi, tilning orqa qismi biroz ko'tariladi. Og'iz bo'shlig'idan chiqayotgan havo to'siqqa uchramaydi. Un paychalari titraydi, ovoz qatnashadi.



[O'] tovushini talaffuz qil

- [O'] tovushini talaffuz qilganimizda havo oqimi to'siqqa uchraydimi?
- Demak, [O'] – unlimi, undoshmi?
- [O'] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?



paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!
[O'] tovushi – unli.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [O'] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Bo'ri



O'roq



Olxo'ri

6. [O'] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.


7. «OLXO'RI» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Olxo'ri so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
 - So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi, jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
 - So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?

- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
 - So'zdagi oltinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
 - So'zda nechta tovush bor?
 - So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
 - So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
 - So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «O» harfni yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.




9. Barmoqlaring bilan «O» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni birlashtirib bosh barmoqqa, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini biroz bukib, chap qo'lning yuqori qismiga yo'naltiramiz, qolgan barmoqlarni ko'rsatkich barmoqning tagiga yashiramiz va «O» harfini hosil qilamiz.

10. [O'] harfi nimalardan hosil qilingan?



11. Aytishida «O» harfi bo'lgan raqamlarni top.



12. «O» harfini o'qi.

MO'

O'M


SHO'

O'SH

KO'

O'K

Unlilarni yo'nalish bo'yicha kuyla.



13. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaf-fuz qil.

O'T TO'N KO'K KO'L TO'N

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, [O'] tovushi-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

o'l-ka	o'z-bek	ro'-mol
o'-gim	Go'-zal	ko'k-lam
o'-jar	jo'-ja	bo'-ri
o'-tin	cho'-mich	o'r-mon
o'r-dak	ko'-mak	to'-ti

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inxalarga ajrat, [O'] tovushi-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

to'-ga-rak o'r-gim-chak do'm-bi-ra


➤ [O'] tovushi qatnashgan «Tez aytish»ni o'rganamiz.

O'ktam ko'm-ko'k ko'rakam ko'klam rasmini ko'p ko'k qa-lamda chizdi.


13. «O'» harfiga oid rasmlarni top.




14. «O'» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




15. Nuqtalarini birlashtir va harfning nomini ayt:




16. «O'» harfini to'ldirib yoz:



17. Daftara kataklariga bir qator «O'» harfini yoz:



16. Hosil bo'lgan «O» harfini bo'ya.





1. Qarg'alar kunlar isishi bilan shimoliy sovuq o'lkalarga uchib ketadilar. Qarg'alar qanday ovoz chiqaradi: «Qarrrr... qarrrr...qarrrr...».

- «Qarrrr... qarrrr... qarrrr» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([Q]).



2. «Q» nima deydi?

*Qattiq yerdan boychechagim,
Qatrab chiqding oychechagim.
Qish qattig'i tamom deding,
Quyoshjonga salom deding.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Kosaga sho'ng'ib qaytar,
Og'ziga borib aytar.

(Qoshiq)



Tusi oppoq paxta emas,
G'irchillaydi taxta emas.

(Qor)



- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([Q]).

4. Ko'zguga qara va [Q] tovushining hosil bo'lishini kuzat.

Tovush artikulyatsiyasi



Yuqori va pastki old tishlar o'rtasida muayyan oraliq masofa saqlanadi, til uchi harakatsiz, hech qanday shakl egallamaydi, til o'zagi tanglay tomon ko'tarilgan. [Q] tovushi bo'g'izda hosil bo'ladi; ovoz un paychalarining kuchli tebratilishi natijasida [Q] tovushi paydo bo'ladi, til o'zagi un paychalar devori kuchli tebranadi; bola nutqida [K] tovush talaffuzi meyorda bo'lmasa, [Q] tovushining meyoriy talaffuzini shakllantirish natija bermaydi.



[Q] tovushini talaffuz qil

- [Q] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?
- Havo qayerda to'siqqa uchraydi?

- Demak, [Q] – unlimi, undoshmi?
- [Q] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titrav-dimi?

ESLAB QOL!

[Q] – undosh, jarangsiz va portlovchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [Q] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Quyon



Baqlajon



Qalpoq

6. [Q] tovushi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.


7. «BAQLAJON» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Baqlajon so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?

- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi sakkizinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi uchinchi bo'g'inni ayt.

8. «Q» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tana va uni hosil qil.



9. Barmoqlaring bilan «Q» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqni birlashtirib bosh barmoqqa, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini biroz bukib, chap qo'lning pastki qismiga yo'naltiramiz, qolgan barmoqlarni ko'rsatkich barmoqning tagiga yashiramiz va «Q» harfini hosil qilamiz.

10. «BAQLAJON» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

11. «Q» harfi nimalardan hosil qilingan.



12. Rasmdan «Q» harfiga o'xshash shaklni top.



13. O'qi.

QA

AQ

QU

UQ

QO

OQ

QI

IQ

QE

EQ

➤ Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil:

BOQ

QOL

QOSH

QISH

QUSH

QO'L

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [Q] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

qa-lam

qa-dam

so-qol

qa-dim

qat-tiq

yum-shoq

qu-yon

qop-lon

qo-shiq

so-chiq

sich-qon

qu-loq

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, [Q] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

baq-la-jon

qur-ba-qa


➤ «Tez aytish»ni yod ol.

Qobil, Qo'chqorvoy, Qurbon
Qordan qurdilar qo'rg'on.

14. «Q» harfli joylarni qizilga,
«S» joylarni sariqqa,
«Y» joylarini yashilga,
«H» joylarini havo rangga,
«J» joylarini jigarrangga bo'ya.




19. «Q» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.



20. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




21. «Q» harfini to'ldirib yoz:



22. Daftар kataklariga bir qator «Q» harfini yoz:



23. Hosil bo'lgan «Q» harfini bo'ya.





**1. Bizning bog'ning mevasi,
Keling, ko'ring eng asil.**



2. «Ng» nima deydi?
*Tayyorga ayyor nahang,
Tekinxo'r, takasaltang.
Qarmoqdagi o'ljaga
Og'iz solgandi qarang:
Tumshug'idan ilinib,
Tipirchilar, holi tang.*

3. Topishmoqlarning javobini top.

Yumaloq mitti,
Qo'li har yerga yetdi.

(Tanga)



Pishsa bemaza, pishmasa maza.

(Bodring)



- Topishmoq javobidan «Ng» harf birikmasini top ([Ng]).



[Ng] tovushini talaffuz qil.

ESLAB QOL!

[Ng] tovushi – undosh.

4. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [Ng] tovushining so'zlardagi o'rnnini aniqla.



Tanga



Bodring


5. «Ng» harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarni esla va ularni ayt.

6. «BODRING» so'zini talaffuz qil. So'zdagi unli va undoshni ajrat.

So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

- Bodring so'zida nechta bo'g'in bor? Nima uchun?
- So'zdagi birinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi? Nima uchun?
- So'zdagi uchinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi to'rtinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi beshinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zdagi oltinchi harf qaysi? U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi yettinchi harf qaysi? U unli yoki undosh harfmi?
- So'zda nechta tovush bor?
- So'zdagi birinchi bo'g'inni ayt.
- So'zdagi ikkinchi bo'g'inni ayt.

7. «Ng» harf birikmasini yozish uchun zarur bo'lgan qism-larni tanla va uni hosil qil.



8. «Ng» harf birikmasi nimalardan hosil qilingan?



9. «BODRING» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

10. O'qi.

Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qil.

TONG | RANG | TENG | KENG | CHANG | TANG

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Ng] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

ta-rang

shud-ring

ting-la

ta-nга

bod-ring

na-hang

➤ To'rt bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'lnlarga ajrat, [Ng] tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

ta-ka-sal-tang

«Tez aytish»ni yod ol:

➤ «Ng» harf birikmasi qatnashgan «Tez aytish»ni o'rga-namiz.

Dengiz tubsiz dedingizmi,

Dengiz tengsiz dedingizmi?


11. Shu rasmda nimalar tasvirlangan.



12. «Ng» harf birikmasi bo'lgan so'zlarning rasmini bo'ya.



13. Rasmga qarab poliz, tong, keng, ring, eng, bodring, jang, rang, teng so'zlari yordamida gaplar tuz.




14. «Ng» harf birikmasiga oid rasmlarni top.




15. «Ng» harf birikmasini sanoq cho'plaridan hosil qil.



16. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:



17. «Ng» harf birikmasini to'ldirib yoz:



18. Hosil bo'lgan «Ng» harf birikmasini bo'ya.





1. Nabijon «Xxxur...xxxur...» etib xurrak otib uxbab qoldi, chunki u juda ham charchagan edi. Nabijon qanday xurrak otayapti: «Xxxur...xxxur...»

- «Xxxur... xxxur...» – birinchi qanday tovushni eshitayapsan? ([X]).

2. «X» nima deydi?

<i>Xabarchi xo'roz sahar</i>	<i>Xursand bo'ling, ashnalar,</i>
<i>«Xushxabar – deb qichqirar.</i>	<i>Xayrli tong boshlanar!...</i>
<i>– Xalos bo'ldik zulmatdan,</i>	<i>Xurrak otib yotmangiz,</i>
<i>Xatarli tun – kulfatdan.</i>	<i>Xo'p g'aflatga botmangiz»</i>

3. Topishmoqlarning javobini top.

Joni yo'q, tani yo'q, Yuz chaqirimdan oshib keldi.	Boshi – taroq, Dumi – o'roq.
---	---------------------------------

(*xat*) (*xo'roz*)

- Topishmoq javobidagi birinchi tovush qaysi? ([X]).

4. Ko'zguga qara va [X] tovushining hosil bo'lishini kuzat.



Tovush artikulyatsiyasi

Lablar biroz ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, ammo birikmaydi, «X» tovushini unli [a], [i], [u] tovushlari bilan birikkan holda talaffuz etilganida, tilning uchi pastga tushgan va biroz itarilagan, til kuragining orqa qismi yumshoq tanglayga yaqinlashgan bo'lib, tor bo'shliq hosil bo'ladi va u bo'shliq orqali havo o'tadi. [X] tovushi [ya], [ye], [yo], [yu] unli tovushlar birikmasi bilan talaffuz etilganda, til uchi pastga tushgan bo'lib, pastki kurak tishlar asosiga tegib turadi va bo'shliq hosil qiladi. Bu bo'shliq (tirqish) orqali o'pkadan kelayotgan havo o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi. Buning natijasida havo oqimi og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.



vushmi?

➤ [X] tovushini talaffuz qilganimizda havo to'siqqa uchraydimi?

➤ Havo qayerda to'siqqa uchraydi?

➤ Demak, [X] unli tovushmi, undosh tovushmi?


[X] tovushini talaffuz qil

➤ [X] tovushini talaffuz qilish paytida un paychalari titraydimi?

ESLAB QOL!

[X] – undosh, jarangsiz va sirg’aluvchi tovushdir.

5. Rasmdagi narsalarning nomini ayt. [X] tovushining so’zlardagi o’rnini aniqla.



Xokandoz



Paxta



Mix

6. [X] tovushi ishtirok etgan so’zlarni esla va ularni ayt.

7. «XONTAXTA» so’zini talaffuz qil. So’zdagi unli va undoshni ajrat.

So’zda nechta unli bo’lsa, shuncha bo’g’in bo’ladi.

- Xontaxta so’zida nechta bo’g’in bor? Nima uchun?
- So’zdagi birinchi bo’g’inni ayt.
- So’zdagi ikkinchi bo’g’inni ayt.
- So’zdagi uchinchi bo’g’inni ayt.
- So’zdagi undosh tovushlarni ayt.
- So’zdagi birinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?


- So'zdagi ikkinchi harf qaysi? U unli yoki undosh tovushmi? Nima uchun?
- [T] tovushidan oldingi harfni nomla. U unli yoki undosh tovushmi?
- So'zdagi to'rtinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- [T] tovushidan keyingi harfni nomla. U unli yoki undosh tovushmi?
- So'zdagi oltinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi yettinchi harfni ayt. U jarangli yoki jarangsiz tovushmi?
- So'zdagi sakkizinchi harfni ayt. U unli yoki undosh tovushmi?
- So'zda nechta tovush bor?

8. [X] tovushi mana bunday harf bilan ifodalanadi.

X

Tegirmonning charxiga
«X» harfi o'xshab ketar,
«H» yumshoqroq aytilsa
«X» – qattiqman, deb aytar.

9. «X» harfini yozish uchun zarur bo'lgan qismlarni tanla va uni hosil qil.



10. Barmoqlaring bilan «X» harfini hosil qil.



Ko'rsatkich barmoqlarimiz,
Aqli va sergakdir.
Ularni tutashtirib,
«X» harfini yasaymiz.

11. «XONTAXTA» so'zini qo'l barmoqlari yordamida hosil qil.

12. «X» harfi nimalardan hosil qilingan.



13. Rasmdan «X» harfiga o'xshash shaklni top.



14. O'qi.

XA
AX

XU
UX

XO
OX

XI
IX

XE
EX

XO'
O'X

15. Bir bo'g'inli so'zlarni o'qi va tovushlarni to'g'ri talafuz qil:

XAT

XON

XIL

XAS

XOL

➤ Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qi, bo'g'lnarga ajrat, X tovushi-ning so'zdagi o'rnnini aniqla:

xa-bar

pax-ta

tax-ta

xo'-roz

xal-ta

xan-jar

xas-kash

xa-sis

xa-tar

xa-to

xa-fa

xiz-mat

xir-mon

xiy-la

xur-mo

➤ Uch bo'g'inli so'zni o'qi, bo'g'inxilarga ajrat, [X] tovushi-ning so'zdagi o'rnini aniqla:

xo-kan-doz

xon-qi-zi

ol-ma-xon

Xur-shi-da

xa-ri-ta

xo-ti-ra

xu-lo-sa

Bu-xo-ro



Yaxshi bola

Yaxshi bola o'qishni va mehnatni sevadi. Ozoda va orasta yuradi. Salom va odobni kanda qilmaydi. Vaqt ni qadrlaydi. Hammaga yaxshilikni xohlaydi. Yaxshilar suhbatiga intiladi. Yomonlar suhbatidan qochadi.

➤ [X] tovushi qatnashgan «Tez aytish»ni o'rganamiz.

Xolida xola xamirturushli xamir qordi.

15. «X» harfi bilan boshlanuvchi narsalarning rasmini o'zing bo'ya.




16. «X» harfi qatnashgan narsalarni top.




17. «X» harfini sanoq cho'plaridan hosil qil.




18. Nuqtalarni birlashtir va harfning nomini ayt:




19. «X» harfini to'ldirib yoz:



20. Daftар kataklariga bir qator «X» harfini yoz:



21. Hosil bo'lган «X» harfini bo'ya.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *M. Ayupova.* Logopediya. – T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007, 2011.
2. *D. Rajabov.* Husnixat alifbo. – T., Nihol, 2010.
3. *F. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermatova.* Alifbe. – T., Ma'naviyat, 2012.
4. *Z. Shamurotova.* Logopediya: meyoriy talaffuzga o'rnatish. – T., Niso poligraf, 2012.

MUNDARIJA

Kirish so‘zi	3
Qo’llanma bilan ishlashga doir ota-on va pedagoglarga tavsiyalar (yoki uslubiy maslahatlar)	8
Aa	16
Oo	23
Uu	29
Mm	36
Nn	42
Kk	48
İi	55
Pp	62
Tt	69
Rr	77
Ll	84
Dd	92
Ss	100
Shsh	108

Gg	116
Zz	124
Vv	132
Ff	140
Bb	148
Yy	157
Hh	165
Ee	173
Chch	181
Jj	189
G'g'	197
O'o'	204
Qq	212
Ngng	220
Xx	227
Foydalaniłgan adabiyotlar	236

M.Y. Ayupova, Sh.D. Aripova

**LOGOPEDIYA:
TO'G'RI TALAFFUZ
QILAMIZ VA YOZAMIZ**

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI

Muharrir M. Tursunova
Musahhih M. Turdiyeva
Dizayner-sahifalovchi E. Muratov

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel/Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.
Bosishga ruxsat etildi 30.01.2020. «Calibri» garniturasi.
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi $70\times90^1/_{16}$.
Bosma tabog'i 15,0. Nashr hisob tabog'i 15,5.
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 3.

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.



M.Y. Ayupova Toshkent viloyati Toshkent tumanida tug'ilgan. 1974-yili o'rta maktabni muvaffaqiyatli tugatib, Toshkent shahri tibbiyot bilim yurtiga o'qishga kirdi va mazkur bilim yurtini 1976-yili imtiyozli diplom bilan tugatdi. M. Ayupova 1981-yili Toshkent Davlat pedagogika institutini imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tugatdi. U 1981–1985-yillarda davomida Respublika ko'r bolalar maktab-internatida tarbiyachi, logoped bo'lib ishladi. 1985–1986-yillarda Toshkent viloyati o'qituvchilar malaka oshirish institutining «Maxsus mакtab va mакtab-internatlar» bo'limida metodist bo'lib o'z faoliyatini davom ettirdi. 1986-yili Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti Oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasida o'qituvchi bo'lib ish boshladi. M. Ayupova 1992-yili Moskvada «5 yoshli bolalarda fonetiko-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1986–1992-yillarda Oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasida o'qituvchisi; 1992–1994-yillarda Defektologiya kafedrasida katta o'qituvchi; 1994–1998-yillarda dotsent vazifasini bajaruvchi; 1998–2000-yillarda kafedra dotsenti lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 2000–2007-yillarda Defektologiya kafedrasи, 2007–2010-yillarda Korreksion pedagogika kafedrasи mudiri lavozimida ishladi. 2002–2003; 2003–2004-o'quv yillarda «Eng yaxshi kafedra mudiri» konkursi g'olibи bo'ldi. 2007-yilda M. Ayupova tomonidan tayyorlangan 35 bosma taboqli «Logopediya» darsligи «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatи» nashriyotida nashr qilindi. Ushbu darslik O'zR OO'MTB ta'sis etgan OO'YU uchun chiqarilgan o'quv darsliklari o'rtasida «Yilning darsligи va o'quv adabiyoti» tanlovida birinchi o'rinni egalladi va «Iste'dod» Respublika jamg'armasining birinchi darajali diplomi bilan taqdirlandi. M.Y. Ayupova tomonidan hammulliflikda yana bir qator darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar nashrdan chiqdi. U o'zining ilmiy ma'ruzalari bilan Xalqaro forum, Respublika miqyosida o'tkazilgan konferensiya va seminarlarda faol ishtirok etdi. M. Ayupovaning 100 dan ortiq ilmiy maqolalari hamda ilmiy to'plamlari Respublika jurnallarida chop etildi. Hozirda u o'zining ilmiy-ommabop, ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy maqolalari bilan Respublika jurnallarida faol ishtirok etib kelmoqda.



Sh.D. Aripova 1986-yil 12-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1994–2001-yillarda Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 109-o'rta maktabda o'qidi. 2001–2004-yillarda Sobir Rahimov nomidagi tibbiyot kollejini tugatdi. 2004–2008-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining Defektologiya fakultetida tahsil oldi va 2010-yilda mazkur mutaxassislik bo'yicha magistrlik diplomini oldi. 2010-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining Defektologiya fakulteti Korreksion pedagogika kafedrasida, 2012–2014-yillarda shu universitetning katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida, hozirda esa shu kafedrada o'qituvchi sifatida faoliyat olib bormoqda. Sh. Aripova vazirlik va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi va ilmiy-ommabop jurnallarda 40 dan ortiq tezis hamda maqolalari nashrdan chiqdi. O'z faoliyati davomida Sh. Aripova izlanuvchan, tirishqoq, maqsadga erishish uchun intiluvchan, mas'uliyatlар inson sifatida fakultet xodimlari, talabalar va tinglovchilar orasida hurmat qozonib kelmoqda.



ISBN 978-9943-391-94-9

9 789943 391949